

Quvondiq Olloyorov

AREAL LINGVISTIKA FANINI O'QITISH ASOSLARI

AREAL LINGVISTIKA



Toshkent-2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Quvondiq Olloyorov

Areal lingvistika fanini o'qitish asoslari

(O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA)

TOSHKENT - 2020

UDK: 811.211

BBK: 36.34.O-96

Olloyorov, Quvondiq

Areal lingvistika fanini o‘qitish asoslari (O‘quv-uslubiy qo‘llanma) / Q.Olloyorov. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Urganch davlat universiteti. –Toshkent: “Adabiyot uchqunlari”, 2020-yil. 63 bet.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma “Areal lingvistika” fani uchun Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil, 21-noyabrdagi 5-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida tayyorlangan. Unda “Areal lingvistika” fani bo‘yicha olib boriladigan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarning mavzulashtirilgan materiallari o‘rin olgan.

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanmadan filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishlarida fan bo‘yicha olib boriladigan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda unumli foydalanish mumkin.

Mas’ul muharrir

Zaribboy Do‘simov – filologiya fanlari doktori, professor, Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi.

Taqrizchilar:

Azamat Primov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Sarvar Ro‘zimboyev – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Nasiba Sabirova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

O‘quv-uslubiy qo‘llanma Urganch davlat universiteti filologiya fakultetining 2019-yil 23-dekabrdagi № 4-yig‘ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan.

ISBN -978-9943-5257-9-5

© “Adabiyot uchqunlari”
© Quvondiq Olloyorov

MUNDARIJA

KIRISH	5
O'QUV MATERIALLARI	6
MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI	49
GLOSSARIY	51
ILOVALAR	56

**Toshkent
“Adabiyot uchqunlari”
2020**

O‘QUV-USLUBIY QO‘LLANMADA FOYDALANILGAN TRANSKRIPSION BELGILAR

	Transkripsion belgilar	Misollar
	Unli tovushlar	
a		<i>ata</i> (ota), <i>aptavuz</i> (avtobus), <i>čap</i> (chop)
ä		<i>änä</i> (ana), <i>ämä</i> (amma)
o		<i>oraq</i> (o‘roq), <i>oquvči</i> (o‘quvchi)
ö		<i>ördäk</i> (o‘rdak), <i>öpkä</i> (o‘pka)
u		<i>qul</i> (qul), <i>tumar</i> (tumor)
ü		<i>Ürgänč</i> (Urganch), <i>tüs</i> (pastga tush)
i		<i>bir</i> (bir), <i>kir</i> (kir), <i>bigiz</i> (bigiz)
ї		<i>qï:z</i> (qiz), <i>dï:z</i> (tizza)
e		<i>ekin</i> (ekin), <i>Eşmät</i> (Eshmat)
	Undosh tovushlar	
g		<i>gä:mä</i> (kema), <i>gül</i> (gul)
ğ		<i>gaz</i> (gaz), <i>globus</i> (globus)
â		<i>aǵa</i> (og‘a), <i>čugul</i> (chaqimchi)
j		<i>jüjä</i> (jo‘ja), <i>Jümmi</i> (Jummi), <i>Jabbi</i> (Jobbi)
ž		<i>žurnal</i> (jurnal), <i>äzdär</i> (ajdar)
ń		<i>aǵsiya</i> (aksiya), <i>kosmos</i> (kosmos)
k		<i>kök</i> (ko‘k), <i>kečä</i> (kecha), <i>Käşmir</i> (Kashmir)
q		<i>Qummi</i> (Qummi), <i>qudurmaq</i> (quturmoq)
w		<i>sawun</i> (sovun), <i>awaz</i> (ovoz), <i>äwwäl</i> (avval)
v		<i>väpa</i> (vafo), <i>sävät</i> (savat)
ş		<i>şipa</i> (shifo), <i>şämmä</i> (shamma, quruq choy)
č		<i>čomič</i> (cho‘mich), <i>čürirk</i> (chirik)
ň		<i>yańaliq</i> (sadaqaning bir turi), <i>čonqir</i> (chuqur)
ñ		<i>badriñ</i> (bodring), <i>gäräñ</i> (garang, kar)

ESLATMA: unlining o‘ta choziqligini ifodalash uchun undan so‘ng ikki nuqta qo‘yilishi mumkin.
 Tuzuvchi PhD.Q.M.Olloyorov

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona til siyosati natijasida tilshunoslik sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrda o'zbek tilining xalqimizning ijtimoiy hayotidagi hamda xalqaro nufuzi va maqomini tubdan oshirish maqsadidagi farmoni¹ mazkur sohaning rivojlanishi uchun yana bir turtki bo'ldi.

Tilmizning diaxron hamda sinxron aspektlarda tekshirilishi, shuningdek, o'zbek tilining dialektal jihatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan ko'plagan tadqiqotlar maydonga kelmoqda.

Ushbu sohada yirik monografik ishlarning yuzaga kelishi endilikda o'zbek tili va shevalarini qiyosiy-tarixiy hamda tipologik tekshirishlarni hozirgi zamон aniq va izchil metodlari bilan, til hodisalarining tarqalish chegaralarini aniqlab beruvchi areal lingvistik metodlar asosida ilmiy jihatdan tekshirishni taqozo qiladi. Shu bilan birga o'zbek xalq shevalari atlaslarini yaratish masalasini galдagi muhim vazifa sifatida kun tartibiga chiqaradi.

Tillarning turli xil xususiyatlarini areal jihatdan o'rganish jahon tilshunosligida ancha ertaroq boshlangan. Mazkur soha keyingi yillarda o'zbek tilshunosligining ham muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbek tili va dialektlarini areal jihatdan tadqiq etish bugungi o'zbek tilshunosligida o'ziga xos ahamiyat kasb etib bormoqda.

Areal lingvistika fani tilimiz hamda shevalarimizning nafaqat hozirgi zamонaviy ko'rinishini, balki uning tarixiy ildizlari, tarqalish areallari, qardosh va qardosh bo'lмаган tillar bilan aloqalari kabi jihatlarni tekshiradi, shular borasida bahs yuritadi.

Bugungi kunda milliy tilimiz va shevalarimizning tarixiy va zamонaviy ko'rinishlarini qiyoslash, ularni nozik farqlarigacha aniqlab, lingvistik atlaslarini yaratish hamon o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Areal lingvistika fanining oliy o'quv yurtlarining filologik yo'nalishlari o'quv dasturlariga qaytadan kiritilishi mazkur sohadagi ilmiy, uslubiy manbalarga ehtiyoj yaratadi. Qo'lingizdagi ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma xuddi ana shu maqsadlarga xizmat qiladi

¹ <https://bit.ly/2MBf2Mc>

1-ma’ruza

Kirish. “Areal lingvistika” fanining maqsad va vazifalari

Reja:

1. “Areal lingvistika” faniga kirish
2. “Areal lingvistika” fanining predmeti
3. Fanning maqsad va vazifalari

Tayanch tushunchalar: *bilingvism, lingvogeografik metod, metokartografik metod, kartografik metod, adstrat, superstrat, substrat, bilingvism, areal lingvistika*

“Areal lingvistika” fani zamonaviy qiyosiy tilshunoslik sohasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Ushbu soha bugungi kunda ham ilmiy, ham amaliy jihatdan jadal rivojlanib bormoqda. Bu fanni o‘rganishni uning tilshunoslik fanlari orasida tutgan o‘rni, shuningdek, uning qanday fan ekanligini aniq belgilab olishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur yo‘nalish qiyosiy tilshunoslikning asosiy tarmoqlaridan bo‘lsa ham, bu sohada ancha sezilarli ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lishiga qaramay, tilshunoslikda “**areal lingvistika**” tushunchasini qanday talqin qilish borasida aniq bir to‘xtamga kelingan emas¹. Shuningdek, xuddi ana shu sohaga taalluqli bo‘lgan “**lingvistik geografiya**” (lingvogeografiya) va “**arealogiya**”, “**dialektografiya**” terminlari talqini masalasida ham muayyan munozaralar mavjud.

Mantiqan olib qaraganda, mazkur ikki termin ko‘p jihatdan bir-biriga mos kelib qoladi. Chunki, “lingvistika” ko‘p hollarda “tilshunoslik” deya talqin qilinadi. Bu nuqtayi nazardan olib qaraganda, “areal lingvistika” va “areal tilshunoslik” bir xil ma’no taliqiniga ega bo‘lishi mumkin.

Biroq ayrim adabiyotlarda “areal lingvistika”, asosan, dialektologik yo‘nalishda ish ko‘rvuchi tilshunoslik sohasi, “areal tilshunoslik” esa turli o‘lkalarda (mamlakatlar, regionlarda) tilshunoslik fanining taraqqiyoti masalalari bilan shug‘ullanuvchi soha sifatida qaraladi.

Bugungi kunda mavjud ilmiy adabiyotlarda “areal lingvistika”ni “**hududiy lingvistika**” deya talqin qilinayotgan o‘rinlar ham mavjud.

¹ Гуров Н.В., Зограф А. «Ареальное языкознание: предмет и метод (на материале языков Южной Азии)»

Unga mos keladigan yana bir yo‘nalish “**lingvistik geografiya**” atamasi bilan yuritiladi. Mazkur ikki tushuncha ham mazmun va mantiqiylik jihatidan bir-biriga mos kelsa ham, ayrim “lingvistik terminlar lug‘ati”da ularni farqli terminlar sifatida qaralaish o‘rinlari kuzatiladi.

Jumladan, O.S.Axmanova tomidan tayyorlangan “Lingvistik terminlar lug‘atida” “areal lingvistika”ni hududiy tilshunoslik, “lingvistik geografiya”ni esa “**dialektografiya**” deya talqin qilinadi.

Biz ushbu kursga asos bo‘lgan “areal lingvistika” terminining nomlanishi borasida mulohaza yuritadigan bo‘lsak, uning asosida: lotincha “**area**” – maydon, hudud hamda “**lingvistika**” – tilshunoslik ma’nosidagi atamalar yotganligini qayd qilishimiz mumkin.

Ko‘pgina olimlar (B.A.Serebrennikov, A.V.Desnitskaya) “areal lingvistika” terminidan butunlay voz kechishni va uning o‘rnida “lingvistik geografiya” atamasini qo‘llashni taklif qiladilar. Bizningcha, bu ikki teminni bir-biridan farqli ravishda qo‘llash maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Ular o‘zaro yaqin tushunchalar bo‘lishiga qaramay, “lingvistik geografiya”ni shevalarni kartalashtirish metodi sifatida, “areal lingvistika”ni esa tillar, dialekt va lahjalarni kengroq o‘rganuvchi va tadqiq qiluvchi fan sifatida qaralishini ma’qul deb hisoblaymiz.

Adabiy til va sheva, shevalarimizning tarqalishi, ularni o‘rganishda lingvogeografiya metodidan foydalana olish nuqtayi nazaridan sheva materiallarini tahlil qilishga doir muayyan bilimga ega bo‘lish va ularni amaliyotda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita amaliy va ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu kurs ana shu muammolar bilan shugullanadi.

Rossiyalik olimlar N.Gurov va A.Zograflarning ta’kidlashlaricha, “areal tilshunoslik” bevosita bir-biriga ta’sir qilgan, munosabatga kirishgan tillarni, tillararo aloqalarni o‘rgansa, “areal lingvistika” nafaqat o‘zaro munosabatga kirishgan tillarni, balki sheva va lahjalarni o‘rganishni ham qamrab olishi bilan farqlanadi.

«Areal lingvistika» kursining predmeti, maqsad va vazifalari, hamda asosiy muammolari

«Areal lingvistika» fanining predmeti, maqsad va vazifalari, mohiyati va strukturasi haqida quyidagilarni belgilab olish mumkin. Ushbu fan sohasining **predmeti** sifatida quyidagilar keltiriladi:

1. Shevalarning tarqalish jarayonlari va shevalararo birlashish hodisalarining muayyan bir til areali ichida yuz berishi holatlarini o‘rganadi;

2. Hududiy aralashuv sharoitida tillararo aloqalar jarayonida yuz beradigan lahja va shevalardagi integratsion belgilar natijalarini tahlil qiladi.

3. Genetik jihatdan qardosh va qardosh bo'lmagan tillarning tarixiy aloqalari oqibatlarining zamonaviy sheva va lahjalardagi izlarini o'rganadi. Bu munosabatlarning lahja va shevalar toponimikasi, antroponimikasi va tilshunoslikning boshqa tarmoqlariga ta'siri masalasi bilan shug'ullanadi;

4. Xalqlarning madaniy va til aloqalari, ijtimoiy-tarixiy aloqalarining kengayishi natijasida shakllanadigan yangi til areallarini tekshiradi va o'rganadi.

Zamonaviy "areal lingvistika" fani quyidagi muammolar bo'yich bahs yuritadi va ular asosida quyidagi **vazifalarni** belgilab oladi:

1. Dilaektlar va tillarning o'zaro aloqalari umumlashmalarining qismlarga ajratilishi bo'yicha tarixiy faklarini aniqlash;

2. Muayyan regiondagi sheva va lahjalarning aralashuvi natijasida yuzaga kelgan o'ziga xosliklarga areal xarakteristika berish, shuningdek, shevalararo to'qnashuvlar qonuniyatlarini ochib berish;

3. Areal tipologiya qonuniyatlarini ishlab chiqish. Lingvistik makon tabiatidagi differensiatsiya va integratsiyani ifodalovchi ekstensional va intensional taksonlarga taalluqli tushunchalar (region, til ittifoqi, massiv, dialekt zonasi, lisoniy areal, izoglossa, izofona, izomorfema, izoleksa va h.k.);

4. Taksonlarning aloqalari va turli makoniy-zamonaviy holatlarini xarakterlovchi tushunchalar (real vaziyat, areallar dinamikasi, adstrat, substrat, superstrat, areal aloqalar va h.k.);

5. Areal lingvistika metodlari va amallarini xarakterlovchi tushunchalar (qiyosiy-makoniy yondashuv, qiyosiy metod, kartografik metod, lingvogeografik metod, struktur-areal yoki metokartografik metod, kadastrlash usuli).

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "areal lingvistika" fani keng qamrovli lingvistik tarmoq bo'lib, yuqorida tilga olib o'tilgan: "areal tilshunoslik", "lingvistik geografiya" (lingvo-geografiya), "hududiy tilshunoslik" kabi lingvistik yo'naliishlar bilan uzviy bog'liq holda ish ko'radi.

2-ma’ruza.

“Areal lingvistika”ning fan sifatida shakllanishi va o‘rganilishi

Reja:

1. “Areal lingvistika” bo‘yicha izlanishlar olib borgan olimlar
2. “Areal lingvistika”ning jahon tilshunosligida paydo bo‘lishi
3. Fanning zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni

Tayanch tushunchalar: *Hind-yevropa tillari, til shajalarari, til ittifoqlari, neolingvistika, izoglossa, areal kartalar, areal lingvistika, arealogiya*

Areal lingvistika fanining asoschisi sifatida nemis olimi I.Shmidt nomi tilga olinadi. Uning “Hind-yevropa tillarining qarindoshligi” monografiyasida (1872) birinchi marta “areal lingvistika” haqida fikr yuritiladi. I.Shmidt o‘scha asarida A.Shleyxerning “til shajalarari” g‘oyasiga qarshi munosabat bildirgan edi.

Areal lingvistikaning keyingi taraqqiyoti dialektologik atlaslarning yaratilishi bilan bog‘liq holda nemis olimi G.Venker (1881), fransuz olimlari J.Jilyeron va E.Edmon (1902-1910) hamda boshqa ko‘plagan tilshunoslari nomlari bilan bog‘liq.

«Areal lingvistika» termini ostida, odatda, quyidagi olimlarning faoliyati va ilmiy izlanishlari nazarda tutiladi: Italiya tilshunosligiga taalluqli neolingvistik ta’limotning bir qanoti vakillari: M.Bartoli, Dj.Bonfante, B.Terrachini, Dj.Devoto va boshqalar; lingvistik geografiya yo‘nalishida: Y^e.Koseriu, D.I.Edelman, B.A.Serebrennikov, N.Z.Gadjieva va boshqalar; til ittifoqlari haqidagi ta’limot bo‘yicha: V.Vinter, M.Emene, I.Balaj, Y^u.S.Maslov va boshqalar; dialektologiya, lingvistik geografiya va arxeologiya fanlarining tadrijiy rivoji bo‘yicha M.A.Borodina va uning shogirdlari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarga tayaniladi.

M.A.Borodina lingvistik geografiya va areal lingvistika tushunchalarini farqlashni taklif etadi. U lingvistik geografiyanı “lingvistik atlaslar tuzish amaliyoti” sifatida va areal lingvistikani esa “areallar teoriyasi” (arealogiya) sifatida qarash to‘g‘ri deya ta’kidlaydi.

D.I.Edelman ham areal lingvistikani hozirgi tillarning yoyilish hodisasini qadimgi areallar asosida o‘rganuvchi soha sifatida talqin qiladi.

B.A.Serebrennikov esa “areal lingvistika” atamasidan butunlay voz kechishni taklif qiladi. Uning o‘rniga “lingvistik geografiya” atamasini qo‘llash lozim deya ta’kidlaydi.

Ana shu qarashlardan ham ma’lum bo‘ladiki, zamonaviy tilshunoslikda fanning nomi borasida turli qarama qarshiliklar mavjud. Ammo o‘zbek tilshunosligida mazkur terminlarni alohida tushunchalarni ifodalashi belgilab olingan. “Lingvistik geografiya” “areal lingvistika” fanining ish ko‘rish metodi sifatida qaraladi.

Fanning zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni

O‘zbek dialektologiyasida yirik monografik asarlarning yuzga kelishi tufayli endilikda shevalarimizni o‘rganishning qiyosiy-tarixiy va tipologik tadqiqotlarning hozirgi zamon aniq va izchil metodlari bilan tekshirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu hol til hodisalarining tarqalish chegaralarini aniqlab beruvchi, lingvogeografik metodlar asosida ish ko‘rvuchi “areal lingvistika” fani bo‘yicha ilmiy asosda tekshirishni taqozo qiladi hamda o‘zbek xalq shevalari atlasini yaratish masalasini gal dagi vazifa qilib, kun tartibiga qo‘yadi.

“Areal lingvistika” faqat til tarixi va dialektologiya uchungina ahamiyat kasb etib qolmasdan, u xalq tarixi uchun ham juda muhim, chunki hududiy dialektologik ma’lumotlar muhim tarixiy manba hisoblanadi.

O‘zbek tilshunos olimlari Y.D.Polivanov, G‘.Olim Yunusov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.G‘ulomov, S.Ibrohimov, F.Abdullayev, M.Mirzayev, A.Aliyev va ularning shogirdlari tomonidan o‘zbek shevalari yuzasidan olib borilgan bir qator ilmiy izlanishlarda o‘zbek dialektologiyasining lingvo-geografik va areal tadqiqotlari uchun manba yaratildi.

O‘zbek dialektlarida umumturkiy izoglossalar mavjudligini dastlab 1930-yillardayoq, Y.D.Polivanov ko‘rsatib o‘tgan edi. 1944-yilda professor A.K.Borovkov tomonidan «O‘zbek sheva-lahjalarini tekshirishga doir savol-javoblar» anketasi tuzildi.

Professor V.V.Reshetov o‘zbek shevalari dialektologik atlasi tuzish tamoyillarini belgilab, qurama o‘zbek shevalarining 49 ta areal kartasini tuzgan.

Professor M. Mirzayev 1955-yilda «Buxoro viloyatidagi o‘zbek shevalarini o‘rganish uchun anketa» tuzib, ko‘pgina ilmiy muassasa va viloyatlarga tarqatgan edi.

Filologiya fanlari doktori A.Aliyev 1964-yilda «Namangan dialekti bo‘yicha material to‘plovchilar uchun anketa» chop ettirdi.

Professor A.G‘.G‘ulomov rahbarligida 1976-yilda A.Y.Aliyev, K.N.Nazarovlar tomonidan «O‘zbek tilining mahalliy shevalari bo‘yicha material to‘plovchilar uchun metodik qo‘llanma» yaratildi.

O‘zFA A.Navoiy nomli Til va adabiyot institutining o‘zbek dialektologiyasi bo‘limida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi Sh.Shoabdurahmonov boshchiligidagi Toshkent viloyati shevalari atlasi tuzilgan.

1970-yillarda quyi Qashqadaryo shevalari atlasi yaratildi. Ko‘pgina turkiy tillar shevalarining lingvo-geografik va areal tadqiqoti ustida ilmiy tekshirish ishlari muvaffaqiyatli olib borilmoqda.

O‘zbek shevalari dialektologik atlaslarining yaratilishi esa, Respublikamizdagi turkiy tillar dialektal atlasini takomillashtirish uchun qimmatli material bo‘lishi shubhasizdir. Shu bilan birga, turkiy tillar hozirgi dialektlarining areal kartalari ayrim hollarda u yoki bu tilning qadimgi dialektal bo‘linishini aniqlashda nafaqat muhim, balki yagona manba bo‘lib qoladi.

3-ma’ruza **“Areal lingvistika”ning metodologik va metodik asoslari xususida**

Reja:

1. “Areal lingvistika”ning metodologik asoslari
2. Lingvistik geografiya metodi
3. Dialektni zonalashtirish metodikasi va areal sathda o‘rganish

Tayanch tushunchalar: *transkripsiya, sheva konsepsiysi, etimologik ekskurs, areal-tipologik metod, dialektal bo‘linish, zamon faktori, makon faktori, dialektal atlaslar, jonli dialektlar, mikroatlaslar*

“Areal lingvistika”ning metodologik asoslari

Areal lingvistika fanida muayyan ilmiy xulosalar hosil qilish uchun bir qancha masalalarga oydinliklar kiritish va ularni yechishga harakat qilish orqali ko‘ngildagi natijalarga erishish mumkin. Jumladan: Shevalar sistematikasida makon g‘oyasi bilan uyg‘unlikning yo‘qligi; adabiy til va shevalar qarama-qarshiligining ilmiy tadqiqot paradigmasida absolutlashtirilgani; shevashunoslikdagi qiyosiy usulning makon g‘oyasi bilan uyg‘un emasligi; dialektologlar tadqiqotlarida makon g‘oyasiga

aloqador bo‘lмаган qiyosiy, qiyosiy-tarixiy va etimologik ekskurslarning mavjudligi; sheva faktiga doir lokal xarakteristikaning mavhumligi; faktga sig‘inish amalining mavjudligi; transkripsiyaning har xil mezonlar asosiga qurilganligi; o‘zbek dialektologiyasida sheva konsepsiyasining mavjud emasligi; atlaslashtirish va kartalashtirish g‘oyalarining nazariy-metodologik jihatdan shakllanmaganligi.

Lingvistik geografiya metodi. “Lingvistik geografiya” atamasi lotincha *lingua* – tilshunoslik va *geographie* – yer, maydon so‘zlaridan olingan bo‘lib, tilshunoslik fanining til hodisalarining tarqalish chegaralarini aniqlovchi sohasidir. Uning o‘rganish obyekti dilaektologiya fani singari sheva va lahjalar hisoblanadi. Chunki, dialeklar tarixan tarkib topgan territorial birlikdir.

Dialekt deganda umumxalq tili bilan, ko‘proq adabiy til bilan chog‘ishtiriladigan mahalliy til birligi tushuniladi. Bu chog‘ishtirish tilning butun hayotida mavjud bo‘lib, har xil etapda har xil ma’noga ega bo‘ladi.

Lingvistik geografiya umumiyligi tilshunosliknnng bir aspekti sifatida areal-tipologik metod orqali tillar tipologiyasini o‘rganish bilan ham, areal tadqiqot metodi bilan ham ish ko‘radi. Lingvo-geografiyada dialektlar va shevalar chegarasi butunicha aniqlanadi, ayrim fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarning joylashish o‘rni belgilanadi hamda tilning dialektal bo‘linishi kartinasi va dialektal strukturasini aniqlab chiqiladi.

Lingvo-geografiya bilan dialektologiya makon va zamon faktorlariga turlicha munosabatda bo‘lsa-da, makon faktori lingvistik geografiyada ham dialektologiyada ham bir xil ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, territoriya faktori lingvistik geografiyaning asosini tashkil etadi. Chunki, lingvistik geografiya keng territoriyaga ega bo‘lishi va bir momentda ko‘plab faktlarni qamrab olishi, umumlashtirish hajmining beqiyosligi bilan tasviriyligi va tahliliy xususiyatga ega bo‘lishi bilan dialektologiyadan ajralib turadi.

Dialektologiyaning tekshirish obyekti jonli dialektal nutq, dialektal lug‘atlar, ilmiy asarlar, qaysi davrga yoki qaysi territoriyaga oidligidan qat’iy nazar, umuman dialektal tekstlar tadqiqotidan iborat bo‘lsa, lingvogeografiya areal atlaslar, dialektal lug‘atlar, ilmiy tadqiqotlar va ma’lum territoriyagagina oid dialektal tekstlar bilan ish ko‘radi.

Dialektologiyada og‘zaki nutqni transkripsiyada yozib olish, dialektal tekstlarni izohlash haqida ma’lum dialektal xususiyatlarni

o‘rganish, dialektal lug‘atlar, monografiyalar va dialektal atlaslar tuzish ishi bajariladi.

Dialektal atlaslar tuzilishi dialektologiyadan areal lingvistikaga o‘tish davri hisoblanadi. Shu bilan birga, bu davr o‘zining nazariy ahamiyatiga ko‘ra areal lingvistika taraqqiyotining dastlabki jarayonidir.

Lingvo-geografik tekshirishning asosiy davri tuzilgan atlaslar va boshqa lingvo-geografik manbalar ustida olib boriladigan tadqiqot davridir. Dialektologik tadqiqotlar to‘liq til materialiga, to‘liq tekst namunalariga ega bo‘lsa, lingvistik geografiya esa, anketalashtirilgan kichik til faktlarigagina tayanadi xolos.

Ma’lumki, dialektal xususiyatlar asta-sekin iste’moldan chiqib, yo‘qolib ketadi. Ular haqidagi ma’lumotlar esa, areal atlaslar va yozib olingan, tekst namunalarida saqlanib qoladi. Demak, yo‘qolib borayotgan areal xususiyatlarni yozib olish dialektologlarning muhim vazifasidir.

Dialektologiya, asosan, dala sharoitida ish ko‘radi. Lingvo-geografik metodlarda ish ko‘rish dialektologiyaga qaraganda ancha konkret xususiyatga ega. Chunki lingvistik geografiya materiallari bilan laboratoriyada va kabinetda shug‘ullaniladi. Areal lingvistika dialektologiyadan o‘sib chiqqan fan hisoblanadi. Jonli dialektlar qanchalik darajada mavjud bo‘lsa, lingvistik geografiya dialektologiya bilan shunchalik bog‘liq bo‘ladi.

Dialektlar o‘z xususiyatlarini yo‘qotib, adabiy tilga singib ketganidan keyin dialektologiya dala sharoitida ish ko‘rish holatidan mahrum bo‘ladi va uning o‘rnini lingvogeografik tadqiqot metodlari egallaydi.

Dialektning lingvogeografik holati uning tashqi ko‘rinishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, til xususiyatining turli aspektlari bilan kesishadi.

Dialektni zonalashtirish metodikasi va areal sathda o‘rganish. Bu konsepsiya ko‘ra o‘zbek tilli massivni ekstensional takson sifatida quyidagi belgilar xarakterlaydi: massivning areal rang-barangligi; massivning areal tartiblanishi; massivning murakkabligi; massivning sistemligi; massivning butunligi; massivdagi lingvoareal jarayonlarning zamon sathida tartiblanishi; dialektal makon-zamonning uzluksizligi va diskretligi; lingvoareal taksonlarning o‘zaro ta’siri. Mazkur belgilar quyidagi parametrlar vositasida o‘rganiladi:

- 1) dialekt zonalari;
- 2) azonal hududlar;

- 3) fokus nuqtalar; subfokus-dominantalar, subdominantalar;
- 4) azonal hududdagi konvergensiyalovchi omillar;
- 5) massivning quyidagi «qo'shnichilik» prinsiplari asosida tartiblanishi: dialekt zonalari orasida; dialekt zonalari va azonal hududlar orasida.

Massiv tarkibidagi taksonlarning o'zaro aloqadorligi.

- a) struktura;
- b) funksiyalanish.

Vaqt sathidagi «qo'shnichilik». Hodisalarning chastotasi:

- a) o'zaro ta'sir tipi;
- b) funksiyalanish tipi;
- d) struktur «xotira»;
- e) makon va zamon aloqalarining mutanosibligi.

Dialektal zonalashtirish metodikasi quyidagilarga tayanadi:

- a) o'zbek tilining tavsif va tasniflarda ifodalangan dialektografik differensiatsiyasi; b) O'zbekistonning territorial-ma'muriy bo'linishiga taalluqli tarixiy ma'lumotlar; d) shakllangan tarixiy-etnografik viloyatlar; e) tarixiy geografiyaga oid ma'lumotlar. O'zbek tilining dialekt zonalari va ularga taalluqli fokus nuqtalar:

1. Janubiy-Sharqiy Farg'ona dialekt zonası (Andijon, O'sh).
2. Shimoliy Farg'ona dialekt zonası (Namangan).
3. Janubiy-G'arbiy Farg'ona dialekt zonası (Qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona).

4. Toshkent dialekt zonası (Toshkent).
5. Janubiy Qozog'iston dialekt zonası (Chimkent-Turkiston).
6. Xorazm dialekt zonası (Urganch, Xiva).
7. Samarqand dialekt zonası (Samarqand, Buxoro) va boshqalar.

Xalq shevalari va adabiy til munosabatlarini areal sathda o'rghanish. Bunda quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratiladi:

adabiy nutq intraduksiyasining joydan joyga farqlanishi;
 adabiy til va shahar shevalarining munosabatlari;
 adabiy nutq va ziylilar qatlami; shaxs nutqining ko'p variantliligi;
 sheva va adabiy til ontologiyalarining farqli ekanligi; shevaning adabiy tilga asos bo'la olmasligi.

4-ma’ruza

“Areal lingvistika”ning nazariy va metodologik muammolari talqini

Reja:

1. Sinxron va diaxron tavsiflash metodologiyalari
2. Areal atlaslar haqida
3. Areal lingvistik atlaslarning turlari

Tayanch tushunchalar: *sinxron tavsiflash, diaxron tavsiflash, kartalashtirish, izoglossa, areal umumlashmalar, til oilalari, qarindosh tillar, tirik tillar, o’lik tillar, areal atlaslar, milliy atlas, regional atlas, makro va mikro atlas, zonal atlas, areal lingvistik (umumareal) tamoyil, dialektologik tamoyil*

Sinxron va diaxron tavsiflash metodologiyalari

“Areal lingvistika” fani tomonidan amalga oshiriladigan areal tadqiqotlar natijalari lingvistik hamda dialektologik atlaslarda namoyon bo‘ladi. “Areal lingvistika”da amalga oshirilayotgan tekshirish obyekti haqidagi xulosalarda ikki xil tavsiflash usuli alohida ajralib turadi:

1. Sinxron tavsiflash.

2. Diaxron tavsiflash.

Sinxron tavsiflash muayyan xronologik voqelikda dialektlararo aloqalar va areal mutanosiblik asosida belgilanadi. A.T.Xrolenkoning ta’kidlashicha, sinxron aspektda tavsiflash dialektografiyada, ya’ni, hududiy dialektlarning zamonaviy-sinxron holatini kartalashtirish jarayonida yuzaga chiqadi.

Tillar oilalari, tillarning shoxobchalari va har xil oilalarga mansub tillarning xususiyatlarini aks ettiruvchi lingvistik atlaslarni tuzishda ham mazkur sinxron tavsiflash usulidan foydalanish tavsiya etiladi.

Sinxron tavsiflash metodologiyasining asosiy maqsadi tillararo va dialektlararo munosabatlarning izoglossalarga suyangan holda, shuningdek, tillararo aloqalarning boshqa ko’rsatkichlari – areal umumlashmalarning (til ittifoqlarining) umumiyl strukturaviy belgilarining chegaralanish areallarini aniqlab olishdir.

Diaxron tavsiflash esa, tillarning tarmoqlarga bo‘linishining qadimgi holatlarini, shu bilan birga dialektlararo birlashish yuz berish holatlari areallarini yuzaga chiqarishga yo‘naltiriladi. “Areal lingvistika” fanining diaxron tavsiflash metodologiyasi tillar areallarining tarixiy ko‘rinishlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Xususan, hududiy jihatdan

yaqin bo‘lgan tillar, sheva va dialektlarning o‘zaro munosabati, bir-biriga ta’sirining tarixiy voqeliklari asosida bahs yuritadi.

Shu bilan birga tillar va shevalarning paydo bo‘lishi, ularning tarqalishi va bunga sabab bo‘ladigan tarixiy, iqtisodiy, siyosiy, etnografik va madaniy omillar ham diaxron tavsiflash metodologiyasi asosida xulosalanadi.

Diaxron aspektida areal o‘rganish nafaqat tillar va ular oilalarining qarindoshligi masalasini o‘rganadi, balki muayyan til va shevaning yuzaga kelishida va shakllanishida qarindosh bo‘lmagan tillar bilan ro‘y bergen tarixiy aloqalarga ham munosabat bildiradi.

Dunyodagi tillarning oilalarga bo‘linishida odatdagi til oilalaridan tashqari, kichikroq ko‘lamdagi mikrooilalarni ham alohida guruhlarga va tarmoqlarga ajratib o‘rganish masalasi diaxron tavsiflash zimmasidagi ish hisoblanadi.

A.V.Desnitskaya o‘zining “Areal lingvistikaning metodologiyasiga doir” deb nomlangan maqolasida: “tirik tillarning lingvistik kartalashtirilishi orqaligina ularning areallarini o‘rganishda maksimal aniqlikka erishish mumkin” – deya ta’kidlaydi. Aynan shuning uchun ham, tillar va dialektlarni areal o‘rganish ishi lingvogeografik metodlar orqali o‘zining yuksak darajada taraqqiyotiga erisha oladi.

Areal atlaslar haqida

Maxsus dastur-so‘roqlik asosida tayyorlangan, ma’lum til yoki shevalarga xos xarakterli xususiyatlarning tarqalish chegarasini aks ettiruvchi areal kartalarning albom shaklidagi sistemali to‘plami – areal (yoki dialektologik) atlas deyiladi.

Areal yoki dialektologik atlas – piktografik yoki umumlashtiruvchi xarakterdagи kartalarni chog‘ishtirish sistemasi bo‘lib, uning yig‘indisi tilning territoriyaga tarqalish modelini yoki uning biror bo‘lagini shakllantiradi.

Areal atlas asosida qilingan xulosalar undagi alohida kartalarning darajasidan va ularning o‘zaro uzviy bog‘lanishidan kelib chiqadi.

Areal atlas o‘zida ma’lum tilning hamma aspekti bo‘yicha material mavjud bo‘lishi bilan shu tilning nazariy va amaliy fonetikasi, grammatikasi va leksikologiyasi taraqqiyotini chuqr o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi. Areal atlas kartalari 2 xil tamoyilga asoslanib tuzilishi mumkin:

1. Dialektologik tamoyil.
2. Areal lingvistik (umumareal) tamoyil.

Karta tuzishdagi umumareal va dialektologik tamoyil hamma atlaslarda barobar saqlanadi, ularning o‘zaro munosabati dastlab material tanlashda ham, kartalashtirishni amalga oshirishda ham asosiy o‘rin tutadi. Shunga qaramay, areal va dialektologik atlaslar o‘zining ko‘pchilik belgilari bilan bir-biridan farqlanadi. Farqlar dastlab anketalashtirish darajasidan boshlanadi.

Areal atlas uchun material keng ko‘lamdagi savollar majmuasi asosida to‘plansa, dialektologik atlas materiali uchun ma’lum dialektal xususiyatlarni modellashtiruvchi dastur asos bo‘ladi. Bunday dasturning har bir punkti alohida mavzu uchun mustaqil so‘roqlikni tashkil etadi. Masalan: Areal kartaning har bir so‘z uchun savolga javob tariqasida tuzilishi uning dialektal ayirmaliklar tarqalishini aniqlaydigan dialektologik kartadan farqini ko‘rsatadi.

Anketalashtirish bevosa va bilvosita (korrespondent orqali) amalga oshirilishi mumkin. Anketalashtirish metodikasining bevosa hamda bilvositaligi, so‘roqqa javob olish formasi orqali amalga oshirilishi, illustratsiya qo‘llashi, informator tilidan anketalashtirish, yoki adabiy tildan tarjima qilish kabilar areal lingvistik kartani baholashda hisobga olinadi.

Areal lingvistik atlaslar, asosan, 2 xil bo‘ladi:

1. Regional atlas.
2. Zonal atlas.

Regional atlasning vazifasi – u yoki bu regiondagи shevalar strukturasining eskiz-sxemasini aniqlash va detallashtirishdan iborat. Moldaviya areal atlasi – **regional atlas** sanaladi.

Roman-german tillari lingvogeografiyasida *milliy atlas*, *regional atlas*, *makro va mikro atlas* terminlari ham qo‘llaniladi. O‘zbekiston hududini o‘z ichiga olgan o‘zbek shevalari atlasi tuzilsa, u regional atlas bo‘ladi.

Yirik zonadagi bir til xususiyatni o‘zida to‘la aks ettirgan atlas – **zonal atlas** hisoblanadi. Masalan, Rumin tilining areal atlasi balkan-roman massivining umum-zonal atlasidir. O‘rta Osiyo zonası territoriyasidagi o‘zbek shevalari materiallarini to‘la qamrab olgan o‘zbek tili atlasi yaratilsa, u zonal atlas hisoblanadi.

Til materiali tadqiqotida kartalashtirish metodini qo‘llash, dastlab, XIX asrga to‘g‘ri keladi. 1821-yilda K.de.Monbre tomonidan tuzilgan fransuz shevalari chegaralarini belgilovchi karta Fransiya qirolik jamiyatiga taqdim qilinadi. 1823-yilda D.Monye o‘zining areal

lingvistik karta tuzish g‘oyasini oldinga suradi. So‘ngra Venker va Vredening nemis tili atlasi (1876–1926 yillar), Margburgdagi nemis dialektologiyasi Markaziy instituti nashr etgan «Nemis leksikologik atlasi», J.Jilyeron va E.Edmonning 12 jildli «Fransuz tili atlasi» (1903–1912 yillar), K.Yaberg va Y^a.Yudning 8 jildli Italian-shveytsar atlasi (1928–1940 yillar) o‘sha davrda maydonga kelgan.

Rus fanida til hodisalarini geografik asosda o‘rganish XIX asrning ikkinchi yarmida (I.I.Sreznevskiy, keyinchalik A.I.Sobolevskiy lar tomonidan) boshlangan edi.

Rus tilining areal lingvistikasi ustida 1903-yildan boshlab A.A.Shaxmatov tashabbusi bilan tuzilgan Moskva dialektologik Komissiyasi rejali ish olib bora boshlaydi. Bu komissiya 1915-yili «Rus tili Yevropa qismi dialektologik kartalaridan tajriba» («Rus dialektologiyasidan ocherklar, ilovasi bilan») degan karta nashr ettiradi. Bu kartada hozirgi Sharqiy slavyan (rus, ukrain, belorus) tillari va bu tillarning har qaysisining lahjalarga va sheva guruhlariga bo‘linishi ko‘rsatib berilgan. Bunday kartalarning yaratilishi rus areal lingvistikasi fani uchun muhim davrni boshlab berdi.

Moskva dialektologik Komissiyasi rus tilining areal lingvistik atlasini tuzish uchun tayyorgarlik ishlarini boshlab yuboradi. 1935-yilda B.A.Larin, F.P.Filin boshchiligidagi «Rus tili atlasi» tuzishga kirishiladi va 1944-yilda R.I.Avanesov, B.A.Larin boshchiligidagi rus tili areal lingvistik atlasini yaratish ustida harakatlar boshlanadi. Chunonchi, 1951-yilda «Moskva sharqidagi Markaziy hududlar rus xalqi shevalari atlasi», 1952-yilda «Shimoli-g‘arbiy hududlar rus xalq shevalari atlasi» tuzib chiqildi. Bularning har qaysisi o‘z hajmi bilan chet el katta milliy atlaslariga tengdir hamda rus tili, rus xalqi tarixi va rus millatining shakllanishini o‘rganish uchun qimmatli material beradi.

Areal lingvistik o‘rganish orqali tillar va shevalarning istalgan aspektini fonetika, (fonologiya), morfologiya, sintaksis, leksika, stilistika kabi aspektlarini tavsif etish mumkin. Lekin atlaslarda tilning hamma hodisasi o‘z aksini to‘la topa olmaydi. Bu hol atlasning turi va hajmi bilan bog‘liq. Areal lingvistik atlaslar yangi hodisalarni ham, tilda yo‘qolib boradigan hodisalarni ham o‘zida barobar aks ettirishi lozim. Eski atlaslardan farqli ravishda hozirgi atlaslar til hodisalarini har taraflama o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘ladi.

5-ma’ruza

“Areal lingvistika”ning tadqiqot olib borish usullari”

Reja:

1. Kartalashtirish usuli.
2. Areal lingvistik kartalarning turlari
3. Areal lingvistik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan ayrim terminlar

Tayanch tushunchalar: *kartalashtirish usuli, j-lovchi shevalar, y-lovchi shevalar, izoglossa, fonetik izoglossa, leksik izoglossa, morfologik izoglossa, areal lingvistik karta, sintetik karta, analitik karta, o‘tuvchi zonalar, aralash zona, boshlang‘ich karta, tayanch karta, oraliq karta, yig‘ma karta, mos hodisalar, areallar, til landshafti, innovatsiya markazi, irradiatsiya*

Kartalashtirish usuli

Areal lingvistikaning asosiy vazifasi – til hodisalarining ma’lum bir hududga tarqalishini kartalashtirish va tadqiq qilish hamda shundan kelib chiqadigan muammolarni hal qilishdan iborat. Ma’lumki, jonli tildagi har bir lingvistik hodisa o‘zining tarqalish chegarasiga, o‘z territoriyasiga ega. Masalan, dialektal so‘zlar chegarasi ma’lum hudud bilan belgilanadi.

Tovush o‘zgarishi bir sheva yoki dialektga xos bo‘lsa ham yoki bir necha sheva dialektlarga tarqalgan bo‘lsa ham, baribir, hudud jihatidan chegaralaigandir. Shu bilan birga, tildagi ba’zi hodisalarning tarqalish chegarasi keng masshtabga ega bo‘lishi ham mumkin. Lekin har bir dialekt biron aniq chegara bilan bir- biridan ajratilmaydi. Bir dialektga xos xususiyat boshqa bir dialektda uchrashi mumkin. Masalan, qishloq tip shevalarida mavjud bo‘lgan ba’zi xususiyatlarni shahar tip shevalarida ham ko‘ramiz, yoki **j-lovchi** shevalarga xos ba’zi xususiyat **y-lovchi** shevalarda mavjud bo‘ladi.

O‘zbek shevalari leksikasi o‘zbek dialektal tilining leksik sistemasini tashkil etadi. Shevalardagi kartalashtirilishi lozim bo‘lgan har bir leksik birlik o‘ziga xos xususiyatga ega.

Shuning uchun kartalashtirilishi lozim bo‘lgan dialektal hodisalarni tanlashda shu territoriyada joylashgan sheva va dialektlar orasidagi eng muhim, farqli til hodisalari hisobga olinib, har bir sheva o‘z dialekti yig‘indisida, shu dialekt sistemasida o‘rganib chiqiladi. Chunki atlasga material yig‘ish uchun mo‘ljallab tuzilgan anketadagi savollar izoglossalar hosil qiluvchi til hodisalariga bag‘ishlangan bo‘lishi kerak.

Har bir kartani tuzishda dastlab kartalashtirilgan til hodisasing tarqalish chegarasi – izoliniyasi (изолиния) aniqlanib chiqilishi kerak. So‘ngra, har xil sheva va dialektlarda mavjud bo‘lgan bir xil til hodisalari **izoglossa** sifatida kartalashtiriladi.

Ba’zi territoriyalarda izoglossalarning tarqoq holda uchrashi qachonlardir aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishining natijasi ekanligidan dalolat beradi. Ayrim dialektlarda leksik izoglossalar yig‘indisida noaniqlik uchrasa, ba’zi dialektlarda esa, fonetik izoglossalar ayniqsa, zinch joylashgan bo‘ladi. Morfologik izoglossalar zinchligi leksik va fonetik izoglossalar zinchligi orasida bo‘lib, keyingisiga yaqinroq turadi.

Areal lingvistik kartalarning turlari

Areal lingvistik karta – lingvogeografik tadqiqot usulining asosiy nuqtasidir. Sinxronik tadqiqot natijasi hisoblangan lingvistik kartada til tarixining hamma davri o‘z aksini topishi mumkin.

Lingvistik kartalar 2 xil metodga asoslanib tuziladi:

1. Lingvistik strukturani tadqiq qilish metodi.
2. Til landshaftini o‘rganish metodi.

Bu hol kartalashtirish metodi bo‘yicha va kartalashtirishning asosiy xarakterini hamda lingvistik yuklama bilan farqlanadigan kartalarning ikki xil asosiy tiplari tuzilishiga sabab bo‘ladi. Ular quyidagilari:

1. Sintetik karta. Bu karta roman lingvogeografiyasida keng tarqalgan bo‘lib, unda har bir punktdagi formalar kartaga bevosita yoziladi.

2. Analitik karta. Bu kartada shartli belgilar sistemasiga, simvollarga suyaniladi va bir-biridan farqlanadigan belgilarning kelib chiqishi taxmin qilinadi. Bu tip karta nemis shevashunosligi maktabiga xosdir.

Agar sintetik karta fonetik transkripsiya yoki traditsion orfografiyaga suyanib, faqat yozuv xarakteri bilan farqlansa, analitik kartaning esa grafik tuzilishi har xil bo‘lishi mumkin.

Yoppasiga anketalashtirishda hamda qabul qilingan. shartli belgilar hajmining kichikligi bilan bunday karta, asosan, rangdorlik metodi – yaqqollikni saqlagan holda muhim areallarni va o‘tuvchi zonalar xarakterini aniq belgilash imkoniyatini yaratadi.

To‘plangan materialning xarakteriga qarab kartalar quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘lishi mumkin:

1. Boshlang‘ich yoki **tayanch karta**. Unda tablitsa materiallari ham muhim rol o‘ynaydi.

2. Oraliq yoki **yig‘ma karta**. Bu kartada bir tipli yoki chog‘ishtiriladigan hodisalar yig‘ilgan bo‘ladi. Mazmuni va material joylashtirish prinsipi jihatidan tayanch karta ish bajarishi jihatidan kartalar sintetik, analitik yoki tematik bo‘lishi mumkin.

Kartadagi lingvistik yuklama (nagruzka) xarakteri tilning territorial tarqalishi yoki taynch punktlarning siqiqligi bilan belgilanadi.

Tayanch tarmoq juda qalin bo‘lsa hamma aholi punkti yoppasiga anketalashtirilishi ham mumkin.

Agar tayanch kartada kartalashtirishning sintetik yoki analitik metodlarini qo‘llash mumkin bo‘lsa, ochiq karta esa, faqat grafik imkoniyatlar bilan chegaralanadi va faqat analitik bo‘lishi mumkin.

Oraliq karta ayrim umumlashtirishni ko‘zda tutadi, bu uning grafik tuzilishida aks etadi. Izoglossalar yig‘indisidan iborat bo‘lgan karta faqat analitik darajada bo‘lishi mumkin.

Ochiq karta (yoki yoppasiga anketalashtirishga yaqin karta) til landshaftining aniq tasvirini beradi.

Lingvistik kartalarning texnik belgilari, kartalashtirish usullari atlas tuzuvchilarning metodologik ko‘rgazmalarisiz to‘liq namoyon bo‘lmaydi.

Areal lingvistik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan ayrim terminlar

Mos hodisalar – umummilliy til strukturasining zvenolari bo‘lib, har xil dialektlarda o‘zining turli bo‘laklari (a’zolari) bilan ishtirok etgani holda shevachilik farqlarini vujudga keltiradi. Shuning uchun ham mos hodisalar hamma vaqt ikki a’zoli (ikkinchchi a’zosi nolga teng bo‘lgan holda ham) yoki ko‘p a’zoli bo‘ladi. Masalan:

1. Ikki a’zoli: *barävüz // boramiz;*

2. Uch a’zoli: *Närvan // şati // zäññi;*

3. Ko‘p a’zoli: *anä// ayi// äyä// biyi// büvi* va boshqalar.

Areallar. (Lotincha *arealis* – maydon, bo‘shliq). Mos hodisalar ayrim bo‘laklarining lingvistik kartada tarqalish zonasini, ya’ni tilning dialektal farqlanishini anglatadi.

Til zonalarining tarixiy taraqqiyotida hamma dialektlarga xos xarakterli xususiyatlar – areallar qisqarishi va ularning mayda-mayda zonalarga bo‘linib ketish qonuniyati ham lingvogeografik tadqiqot usuli natijasida aniqlanadi.

Ma’lumki, qorluq, qipchoq va o‘g‘uz turkiy tillar dialektlarining

O‘zbekiston hududida ixchamlashib, faqat o‘zbek tilining qorluq, qipchoq va o‘g‘uz dialektlari zonasiga aylanib qolganligi o‘zbek dialektologlari tomonidan dialektologik va lingvogeografik tadqiqotlarda aniqlab chiqilgandir.

Izoglossa. Mos hodisalarning u yoki bu a’zosi, bo‘lagi tarqalgan eng chet nuqtalarni tutashtiruvchi atlas kartasidagi chiziq.

Til landshafti deb mazkur til uchun ma’lum bo‘lgan izoglossalar yig‘indisi va ularning shu til territoriyasida joylashish xarakteri tushuniladi. “Landshaft” atamasi, aslida, geografik atama bo‘lib, u ikki qismdan: *land* – yer, maydon va *schaft* – aloqadorlikni, bog‘liqlikni anglatuvchi qo‘srimcha birikishidan hosil bo‘lgan.

Aralash zona. Bir til yoki dialekt ichida boshqa bir til yoki dialekt elementlarining mavjud bo‘lishi. O‘zbek shevalarida tojik tili elementlari aralashgan zonalarning O‘zbekiston va Tojikiston territoriyasida barqarorligi aralash zona sanaladi.

Innovatsiya markazi. U yoki bu til, yoki sheva hodisasining markazi. Masalan: “-*din*”ning asl markazi uyg‘ur tili tarqalgan territoriya bo‘lib, u o‘sha innovatsiya markazidan o‘zbek shevalariga tarqalgandir. Yoki “-ning” qo‘srimchasing innovatsiya markazi qipchoq shevalari hisoblanadi, sekin-asta ulardan boshqa tip shevalarga o‘tib bormoqda.

Irradiatsiya, Hodisaning tarqalish tushunchasi bo‘lib, arealning xarakterli belgilaridan biridir. Masalan: o‘rin-payt kelishigi qo‘srimchasi - *da* Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo shahar tip shevalariga adabiy til ta’sirida to‘siqlarga uchramasdan kirib borish yo‘li bilan tarqalmoqda. Lekin, qaratqich kelishigi affiksi (*ning*) ning kirib borishi aytarli natija bermayotir.

Chunki adabiy tilga asos bo‘lgan shahar shevalari vakillari talaffuzida *-ning* mavjud emas. Qishloq shevalarida nafaqat adabiy tilga, balki madaniy markaz hisoblangan shahar tiliga ergashish tendensiyasi uchraydi va bu tendensiya hamma vaqt saqlanadi. Masalan, Qarshi shahri atrofidagi ham *y*-lovchi, ham *j*-lovchi shevalarda Qarshi shahar shevasi ta’sirida o‘rin-payt kelishigi qo‘srimchasi o‘rnida jo‘nalish kelishigi qo‘srimchasi *-gä* (*şähärgä kördim* kabi) tarqalganligi qayd qilinadi.

Yoki Toshkent shevasi ta’sirida Farg‘ona vodiysidan va boshqa joylardan ko‘chib kelgan yangiyo’lliklar tilida ham *-vat*, *-vüz* hodisalarining irradiatsiyasi mavjud.

Til hodisalarini yoki dialektal hodisalarni tadqiq qilishda ko‘pincha yondosh tillar va ularning shevalari materiallari bilan chog‘ishtiramiz. Bu, albatta, to‘g‘ri. Chunki qo‘shni tillar va shevalardagi lingvistik hodisalar bir-biriga doimo o‘tib turadi. O‘tish hodisasi taraqqiyotning keyingi davri va masofaning yaqinligi bilan xarakterlanadi.

6-ma’ruza **Sheva, lahja va tillar taraqqiyotining hududiy, ijtimoiy munosabatlari**

Reja:

1. Milliy til va milliy lahjalar munosabati
2. Qorluq, qipchoq va o‘g‘uz dialekt zonalari
3. Dialektlarning areal ijtimoiy munosabatlari

Tayanch tushunchalar: *milliy til, milliy lahjalar, fonetik tamoyil, fonematik tamoyil, morfologik tamoyil, grafik tamoyil, tarixiy-an’naviy tamoyil, ramziy tamoyil, tayanch dialekt, o‘lik til, qorluq dialekt zonasi, qigichoq dialekt zonasi, o‘g‘uz dialekt zonasi, turk, o‘g‘uz, xorazmcha turkiy til, xorazm lahjasи, lahja, dialekt, tarixiy fonetika, tarixiy leksika*

Milliy til va milliy lahjalar munosabati

Ma’lumki, har bir adabiy til milliy (xalq yoki elat) tilining yuqori bosqichi bo‘lib, u me’yorlashgan yoki me’yorlashtirilgan til hisoblanadi. Unga yana quyidagi ta’rifni berish mumkin:

«Adabiy til leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik va grammatic jihatdan ma’lum qolipga tushgan, yagona orfografik va orfoepik me’yorlarga amal qiladigan, so‘z ustalari tomonidan sayqal berilgan tildir¹». O‘zbek adabiy tili ham shu qoidaga amal qiladi. O‘zbek adabiy tili ikki shaklda bo‘ladi: og‘zaki va yozma.

Og‘zaki adabiy til orfoepik me’yorlarga, buysundiriladi. Og‘zaki adabiy til davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan barcha sathdagi rasmiy majlislar, o‘qish-o‘qitish ishlari, ommaviy majlislarda qo‘llanadi. Yozma adabiy til esa, orfografik qoidalar asosida shakllantiriladi va orfografiya qoidalari joriy etilgan o‘zbek alifbosiga asoslanadi. Unda bir necha tamoyillardan foydalilanadi: fonetik, fonematik, morfologik, grafik, tarixiy-an’naviy,

¹ Абдурахмонов Ш., Дарвишов И. Ўзбек диалкологияси фанидан амал.машиф.ишлан. –Наманган: 2011.

ramziy va boshqalar.

Har bir adabiy til o‘zining tayanch dialektiga ega bo‘ladi. To‘g‘ri, o‘zbek adabiy tilining shakllanishida shevalarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etadi, lekin ma’lum shevalar adabiy til uchun asos, tayanch (baza) vazifasini bajaradi, ya’ni o‘zbek adabiy tili muayyan dialekt va shevalardan leksik, fonetik, grammatik xususiyatlarni adabiy til fakti sifatida oladi hamda o‘sha sheva va shevalar guruhi taraqqiy etishi bilan birga taraqqiy etadi, chunki sheva jonli til bo‘lib, u doimo rivojlanishda, o‘zgarishda bo‘ladi. Shu tufayli ham adabiy til shu sheva yoki shevalar guruhi taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda taraqqiy qiladi, va aksincha, adabiy til o‘zining tayanch dialektiga ega bo‘lmasa, u bora-bora muomaladan chiqib ketadi.

Muomaladan chiqqan til fanda «o‘lik til» degan termin bilan yuritiladi. Tillar tarixida «o‘lik tillar» mavjudligi haqida ma’lumotlar ko‘p. Lotin tili, qadimgi xorazmiy tili, sanskrit tili va boshqalar. O‘zbek adabiy tili shartli ravishda fonetik jihatdan Toshkent shahar dialektiga, morfologik jihatdan esa Fargona dialektiga tayanadi.

Ma’lumki, Toshkent shevalari 6 ta unlili dialektdir. Fargona dialektidagi fe’l shakllari, asosan, o‘zbek adabiy tiliga me’yor sifatida qabul qilingan. Aslida adabiy tilni bir yoki ikki sheva yoki dialekt bilan bog‘lab qo‘yish to‘g‘ri emas, balki o‘zbek adabiy tili shevalar hisobiga boyib, mukammallahib borishi lozim. Shu ma’noda shevalar adabiy tilning boyish manbasi bo‘lib qoladi.

Qorluq, qipchoq va o‘g‘uz dialekt zonalari

Shevashunoslarimiz tomonidan belgilab olingan o‘zbek lahjalari areallari o‘zbek shevalarining to‘rtta yirik dialekt zonasini tashkil etadi:

1. Qorluq dialekt zonasi.
2. Qipchoq dialekt zonasi.
3. Ug‘uz dialekt zonasi.
4. Har xil dialektlar zonasi.

Qorluq dialekt zonasi. Mazkur dialekt zonasi o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qadimgi turkiy qabilalardan birining nomi bilan ataladi. Urug‘-qabila nomi sifatida «qorluq» etnonimini o‘zida saqlagan o‘zbek xalqining ma’lum guruhi, asosan, Amudaryoning o‘ng oqimi havzasida, ularning bir qismi esa, Qashqadaryoda joylashgan. O‘zbek qorluqlarining kelib chiqishi, tarixi, xo‘jaligi va madaniyatini aks ettirishga Q. Shoniyofovning

maxsus monografiyasi bag‘ishlangan¹.

N.A.Baskakov klassifikatsiyasida ham, asosan, turkiy tillarning qorluq guruhi haqida fikr yuritiladi. Unga ko‘ra qorluq guruhi X—XI asrlarda yuksak madaniyatga ega bo‘lgan xalqlarni sharqda uyg‘ur madaniyatiga va O‘rta Osiyoning g‘arbida turk-eron madaniyatiga (aniqrog‘i, turk va tojik madaniyatiga) ega bo‘lgan xalqlarni qoraxoniylar tomonidan birlashtirilishi natijasida tashkil topgan. Turk qorluqlarning turkiy guruhdagi boshqa qabilalarga, ayniqsa urug‘-qabilaga bo‘linmaydigan o‘zbeklarga yaqinligi ularni qoraxoniylar davridagi qorluqlarning avlodi deb qarashga imkon beradi.

Bu gipotezani asoslash uchun Tojikiston janubidagi qorluqlar va Afg‘oniston qorluqlari tili va shevalari ilmiy asosda o‘rganib chiqildi, ayniqsa, qorluqlarning tilini, ya’ni o‘zbek tilining qorluq dialektini puxta tadqiq etish yo‘lida muayyan qadamlar tashlandi².

O‘zbek tili qorluq dialekt zonasini aholisi o‘zbek xalqi tarkibidagi eng qadimgi qatlam bo‘lib, u O‘rta Osiyoning turkiy tilda so‘zlashuvchi, urug‘ va qabilaga bo‘linmaydigan, o‘troq shahar va qishloq aholisidir.

Qipchoq dialekt zonasasi. Qipchoqlar o‘zbek xalqi etnogenezining yirik komponentini tashkil etadi. Qipchoqlar ko‘pgina turkiy xalqlar: qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman, tatar, boshqird, Oltoy va ayrim Shimoliy Kavkaz xalqlari: no‘g‘oy, qumiq, qorachoy kabi xalqlarning shakllanishida ishtirot etgan. Qipchoq etnik elementi usmonli turklar, vengerlar va boshqa xalqlar tarkibiga ham kirgan.

Hozirgi O‘zbekiston territoriyasidagi qipchoqlar etnik guruhlarning aralashishi natijasida asta-sekin atrofdagi o‘zbeklar tarkibiga singib ketgan. Qadimgi va eski qipchoq yozuvi yodgorliklari bizning kunlarimizgacha saqlangan bo‘lib, bu yodgorliklar arxeologlar, etnograflar va lingvist turkologlar tomonidan chuqur o‘rganilmoqda.

Qipchoq tili o‘g‘uz, bulg‘or va qorluq tillari bilan birga turkiy tillarning g‘arbiy xunn guruhiga mansub. U qorluq va o‘g‘uz tillari o‘rtasida bo‘lib, o‘g‘uz tillariga yaqinroq turadi.

O‘zbek tilining qipchoq dialekt zonasini juda katta arealga ega bo‘lib, j-lovchi o‘zbek urug‘-qabilalar guruhidan tashkil topgandir. Qipchoq shevalari O‘z- bekistonning hamma viloyatlarida va Respublikadan tashqarida ham mavjud.

Shevalar o‘z joylashgan areallarida alohida dialektlarni emas, balki dialekt zonalari va shevalar guruhlarini tashkil etgani holda o‘zbek tili

¹ Шанязов К. Узбеки-карлуки. –Ташкент. 1964.

² Йўлдошев Т. Тожикистондаги ўзбек шевалари. –Тошкент: Фан, 1986.

umumqipchoq arealining mos hodisalarini o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilining qipchoq shevalari, asosan, XX asr boshlaridan boshlab o‘rganila boshlandi.

O‘g‘uz dialekt zonası. Bu zona aholisi o‘zbek o‘g‘uzlari elati nomi bilan ataladi. Akademik Y^a.G^c.G‘ulomovning yozishicha: «o‘g‘uzlar yoki g‘uzlar» turkiy xalqlarning yirik ittifoqini tashkil qilib, VI asrda ko‘chmanchilar imperiyasini yuzaga keltirganlar. S.P Tolstovning fikricha, X-XI asrlarda «o‘g‘uz» termini orqali turli dialektlarda so‘zlashgan va turkiy tillarning janubi-g‘arbiy guruhiga taalluqli bo‘lgan qabilalar ittifoqining jamlanmasi ifoda etilar edi. Bu davrda «turk» va «o‘g‘uz» terminlari bir ma’noda qo‘llangan.

O‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining vakillari genetik jihatdan o‘g‘uzlarning yirik bir qismini tashkil qilib Xorazm tuprog‘ida, Sirdaryoning quyi oqimlarida, Orol dengizi va Amudaryo yoqalarida juda qadimdan yashab kelganlar. Ular rivojlangan shahar hayoti va dehqonchilik madaniyati bilan mashhur bo‘lgan. Alisher Navoiy o‘zining «Majolis-un nafois» asarida o‘zbek o‘g‘uzlari tilini «xorazmcha turkiy til», ya’ni umumo‘zbek tilining **Xorazm lahjası** deb ataydi.

O‘g‘uz guruhiga oid til materiallari ko‘pdan beri lingvistlarning diqqat markazidadir. Bu guruhgaga oid sheva va dialektlarning hamma lingvistik xususiyatlari prof. F.Abdullaev, O.Madrahimov, X.Boboniyoziyov va boshqa olimlarning asarlarida atroflicha yoritilganligi uchun ular xususida maxsus to‘xtalishga hojat yo‘q deb o‘ylaymiz. Biroq bu bilan Xorazmdagi o‘g‘uz lahjalari to‘liq o‘rganib bo‘lindi degan fikrga bormaslik lozim. Chunki mazkur arealidagi o‘g‘uz shevalarida uchraydigan turli xil onomastik, onomasiologik, leksik birliklar bo‘yicha ishlar o‘z tadqiqotchilarini kutib qolmoqda.

Tekshiruvchilarning aniqlashicha, o‘g‘uz lahjası vakillari Xorazm viloyatining Urganch, Xiva, Xazorasp, Xonqa, Bog‘ot, Yangiariq, Qo‘shko‘pir, Shovot tumanlari; Turkmanistonning Toshovuz viloyatidagi Toshovuz shahri, Toshovuz tumani va Ko‘hna Urganch tumani markazi; Qoraqalpog‘istonning Beruniy va To‘rtko‘l tuman markazlarida va ayrim qishloqlarida; Qozog‘istonning Chimkent viloyati Sayram tumanining Mankent, Qoramurt, Qorabuloq, Qizilqishloq singari qishloqlarida va Turkiston tumanining Iqon, Qarnoq qishloqlarida, shuningdek, Buxoro viloyatining Qorako‘l, Olot tumanlarida hamda Vobkent, Buxoro tumanlarining ba’zi qishloqlarida va Jizzax viloyati Forish tumnining Forish va Asmansoy, Bag‘dod qishloqlarida istiqomat qilishadi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan har bir dialekt zonası alohida

territoriyaga joylashgan bo‘lib, o‘ziga xos sistemadagi shevalar va dialektlar guruhidan tashkil topgandir. Demak, o‘zining maxsus dialekt zonasi va mushtarak lingvistik belgilariga ega bo‘lgan bir sistemadagi shevalar va dialektlar guruhi **lahja** deyiladi.

Hamma o‘zbek shevalari, dialektlari va lahjalarining tili, ya’ni uchta yirik (qorluq, o‘g‘uz, qigichoq) lahjaning tili o‘zbek dialektal tilini tashkil etadi. Lahjalar va dialektlar dialektal tilning qismlari hisoblanadi. Ularning har qaysisi ma’lum bir territoriyaga tarqalgan bo‘lib, bir-biridan kompleks til belgilari orqali ajralib turishi bilan xarakterlanadi.

Dialektal til deganda shu til ishg‘ol qilib turgan joyning hamma punktiga territorial ayirmaliklar bilan tarqalgan va ma’lum dialektal zonalarni o‘z ichiga olgan, prinsip jihatidan yozuv sistemasiga ega bo‘lmagan til ko‘zda tutiladi. Dialektal til o‘z xususiyati bilan umumiyligi va xususiy, birlashtiradigan va ajraladigan, murakkab, ko‘p qirrali til butunligini tashkil etadi. Adabiy til bilan dialektal til bir-biridan quyidagi xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi:

1. Dialektal til tarkibi jihatidan hududiy tarqalishining har xilligi bilan xarakterlanadi. Adabiy til esa, u yoki bu hududga qarab ish ko‘rmaydi. Adabiy til prinsip jihatdan shu til joylashgan hamma territoriya uchun umumiyligi va yagonadir.

2. Dialektal til adabiy tilga nisbatan qadimiy, adabiy til bir yoki bir necha dialekt zaminida vujudga keladi.

3. Ma’lumki adabiy tilning yozma shakli og‘zaki tildan kelib chiqadi va asta-sekin rivojlanib keng tarqalibgina qolmasdan, og‘zaki tilga ta’sir ham o‘tkazadi. Hattoki, adabiy tilga tayanch bo‘lgan shevalarga va dialektlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Masalan, Toshkent dialekti adabiy tilning tayanch dialektlaridan biri. Lekin bu dialektda *f* fonemasi, egalik-shaxs qo‘srimchasi *-miz*, qaratqich kelishigi qo‘srimchasi *-ning* mavjud emas. Yozma til ta’sirida bu dialektga *f* fonemasi, qaratqich kelishigi qo‘srimchasi, egalik shaxs-son qo‘srimchalarining adabiy formasi o‘zlashib bormoqda.

4. Adabiy til funksional munosabatda o‘zining umumga xizmat qiluvchi xarakteri bilan ajralib turadi. U til munosabatining va ifodasining hamma formasida qo‘llana oladi. Hozirgi davrda adabiy til madaniyat, ilm-fan tili, ommaviy nutq tilidir. U badiiy adabiyot tilining asosi hisoblanadi.

Dialektal tilning faoliyati adabiy tilga nisbatan juda tor. Dialektal til oilada, hamqishloq va hammahallalar orasida kundalik odatga kirib qolgan munosabatlar tiliga aylanib qoladi.

5. Dialektal til adabiy til bilan mustahkam aloqada yashaydi. U

adabiy tilning ta'sirida o'zgarib boradi va o'z navbatida adabiy tilga material berib, uni boyitib boradi. Masalan, qipchoq, o'g'uz va boshqa sheva vakillari Toshkentga o'qishga yangi kelganlarida o'z shevalarida gapiradilar. Asta-sekin ular o'z leksikonini adabiy til so'z va grammatick formalari bilan boyitadilar. Ular o'z qishloqlariga borganda esa, uni namoyish qiladilar va bu bilan hamqishloqlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadilar. Ular butun umr o'z shevasi tiliga hech qachon to'la qaytisholmaydi, balki uni doim o'zgartirishga harakat qilishadi.

Shuningdek, Abdulla Qahhorning «Sinchalak» povesti yaratilganga qadar «sinchalak» so'zi faqat Qo'qon shevasida ishlatilar edi, xolos. Yozuvchi Abdulla Qahhor tomonidan bu so'z o'zbek adabiy tiliga kiritildi, natijada shevadan kirgan bu so'z butun o'zbek xalqining so'z boyligiga aylandi va adabiy tilni boyitdi.

Dialektlarning areal-ijtimoiy munosabatlari

Dialektlarni areal lingvistik o'rganish til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham qimmatli material beradi. Adabiy tilda yo'q bo'lib ketgan yoki o'zgarib ketgan ba'zi bir fonetik, leksik, grammatick formalarning dastlabki ko'rinishlari (*tabishg'an*, *yag'mur*, *teva* kabilar) hozirgi mahalliy dialektlarda hamon saqlanib kelmoqda. Shuning uchun qadimgi o'zbek yozma yodgorliklarining ayrim tomonlari biz uchun noaniq bo'lsa, hozirgi dialektlarning xususiyatlarini lingvogeografik usul bilan o'rganish orqali ularni aniqlab olishimiz mumkin. Demak, dialekt faktlari yozma yodgorliklar bilan birlikda til tarixining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Shuni qayd etish kerakki, dialekt manbalari yozma yodgorliklarsiz ham o'rganilaveradi, lekin yozma yodgorliklarni tarixiy-dialektal nuqtayi nazaridan dialektlarsiz o'rganib bo'lmaydi. Ba'zi olimlar (masalan, akad. A.I.Sobolevskiy) yozma yodgorliklarga katta ahamiyat bergen bo'lsa, ayrim olimlar (akad.A.A.Shaxmatov) jonli shevalar faktlariga yuqori baho bergen. Yozma yodgorliklar o'tgan davrniig tovush sistemasini aniqlashda har vaqt ham ishonchli material bo'lavermaydi. Tarixiy grammatika uchun eng ishonchli va eng asosiy material olinadigan bosh manba – hozirgi jonli shevalardir, – degan edi A.A.Shaxmatov. Bu olimlar ikkala manbaning ham til tarixi uchun yirik ahamiyatga molik ekanligini inkor etmaydilar.

Tarixiy fonetika uchun hozirgi dialektlardagi fonemalar tizimi katta ahamiyatga ega bo'lsa, tarixiy morfologiya uchun yozma yodgorliklar muhim rol o'ynaydi. Yozma yodgorliklarning ba'zi janrlarigina

(ko‘chirma gap, solnomalar, dialoglar) o‘z davri og‘zaki tilini to‘la aks ettirgan bo‘ladi. Ko‘pgina sintaktik konstruksiyalar qadimiy davr og‘zaki tili xususiyatini puxta qamrab ololmaydi, shu sababdan ham bu sohada hozirgi shevalar materiallariga suyanishga to‘g‘ri keladi.

Tarixiy leksika uchun yozma yodgorliklar tilining roli benihoyat kattadir. Shunday qilib, til tarixining ba’zi tomonlarini yoritish uchun yozma yodgorliklar asosiy manba hisoblansa, ayrim tomonlarini o‘rganish uchun dialektologiya asosiy manbadir. Til tarixi uchun dialektlarning ahamiyati yana shundaki, ular adabiy tildan farqli o‘laroq, o‘zidagi arxaizmlar va qadimiy so‘z formalaridan tashqari, ko‘pgina yangi so‘z va formalarga egadirki, bu yangi so‘z va formalar tarixiy grammatika uchun qimmatli material bo‘lib hisoblanadi.

7-ma’ruza **Izoglossa termini tavsifi va tahlili**

Reja:

1. Izoglossa terminining paydo bo‘lishi haqida
2. Lingvistik yoki dialektologik orol tushunchasi
3. Fonetik, leksik va morfologik izoglossalar haqida

Tayanch tushunchalar: *izoglossa, fonetik izoglossa, leksik izoglossa, morfologik izoglossa, izofonema, izomorfema, izoleksema, areal lingvistik karta, til landshafti, til oroli, lingvistik yoki dialektologik orol, o‘tuvchi zonalar, aralash zona, areallar*

XIX asrgacha olib borilgan lingvistik tadqiqotlarda tillarda mavjud bo‘ladigan xususiyatlar muayyan tilning o‘zigagina xos bo‘liadi deb hisoblangan. Dialektlarni o‘rganish yuzasidan qilingan tadqiqotlarda ham ma’lum bir sheva o‘zigagina xos xususiyatlardan iborat bo‘ladi deb hisoblangan.

XIX asrning o‘rtalari va ikkinchi yarmiga kelib esa, lingvistik tadqiqotlar yana ham taraqqiy topa boshлади va aniqlik kasb eta bordi. Buning natijasida muayyan bir tilda yoki dialektda mavjud bo‘ladigan lingvistik xususiyatlar va hodisalar faqat o‘sha til yoki shevaga tegishli bo‘lib qolmasligi aniqlangan. Jumladan, unga yaqin bo‘lgan areallarda albatta shunday til faktlari mavjud bo‘lishi ilmiy dalillar bilan isbotlab berildi.

Bunday lingvistik faktlar real ijtimoiy-siyosiy geografik xaritalarga bog‘liq bo‘lmasan holda namoyon bo‘ladi. Ana shunday lingvistik xususiyatlarning umumlashgan areallarni ***izoglossa*** atamasi bilan yuritsh qabul qilingan. Har xil sheva va lahjalardagi uchraydigan bir xil til hodisalari ***izoglossa*** sifatida kartalashtiriladi.

Izoglossa termini birinchi bo‘lib XIX asr o‘rtalarida latish tili bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan Avgust Bilenshteyn tomonidan tilshunoslik sohasiga olib kirlgan. Undan keyin italyan lingvisti Mateo Julio Bartolli tadqiqotlari mazkur atamaning keng yoyilishiga sabab bo‘lgan.

Izoglossa termini grek tilidan olingan bo‘lib, “***isoglosse***” *isos* – “tekislik, maydon” va *glosse* – “nutq, til” ma’nolaridagi so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lgan.

O‘zbek dialektlarida umumturkiy izoglossalar mavjudligini dastlab 1930-yillardayoq, Y.D.Polivanov ko‘rsatib o‘tgan edi. Mazkur atama o‘zbek tilshunosligida ham areal (geografik) kartada bir xil lingvistik xususiyatlariga ega bo‘lgan hududlarni birlashtiruvchi chiziq (линия)ni anglatadi.

Masalan, Xorazm viloyatining o‘g‘uz guruh shevalari mavjud bo‘lgan areallar bilan qo‘shti Turkmaniston hududining Toshhovuz viloyatidagi umumiyliliklar mazkur areallardagi izoglossalarni tashkil etadi. Shuningdek, Tojikistonning Xo‘jand viloyatidagi ko‘pchilik shevalarning O‘zbekistondagi shevalar bilan o‘zaro umumiyligi jihatlari ham mazkur areallarning izoglossalarini tashkil qiladi.

Keyingi davrlarda yuzaga kelgan areal lingvistik tadqiqotlarda izoglossalar nafaqat chegaradosh hududlarda, balki ancha uzoq bo‘lgan areallarda ham uchrashi mumkinligi isbotlab berildi. Jumladan, O‘zbek shevalari o‘g‘uz guruhiga mansub dialektlarning umumiyligi izoglossalari faqat Xorazm viloyatidagina emas, Buxoro viloyatining Qorako‘l va Olot tumanlari areallarida mavjud shevalarda, shuningdek Qoraqalpog‘istonning Beruniy va To‘rtko‘l tuman markazlarida va ayrim qishloqlarida, hatto Qozog‘istonning Chimkent viloyati Sayram tumanining Mankent, Qoramurt, Qorabuloq, Qizilqishloq singari areallarida va Turkiston tumanining Iqon, Qarnoq qishloqlarida ham mavjud ekanligi aniqlangan.

Ayrim izoglossalarning ko‘proq territoriyaga tarqalishida xalqlarning qadimda mavjud bo‘lgan aloqa yo‘llari va daryo oqimlari katta rol o‘ynagan. Arael kartalashtirilgan hudud turli tomonga tarqalgan izoglossalarni o‘z ichiga olganda har xil lingvistik hodisalarning tarqalishi

ba’zan bir-biriga mos kelmay qolishi mumkin. U holda o‘xshash bo‘lmanay ayrim guruh izoglossalar to‘dasini, yig‘indisini tashkil etgan areal aniqlanishi lozim bo‘ladi.

Demak, izoglossalar faqat yonma-yon geografik areallardagina mavjud bo‘lmash ekan. Agar har bir dialekt faqat o‘ziga mansub chegaralarda qolsa, bunday til landshaftini **lingvistik yoki dialektologik orol** deb hisoblash mumkin bo‘ladi. Bunday “til orollari” paydo bo‘lishiga xalqlarning “buyuk ko‘chish”lari, siyosiy-ijtimoiy kelishmovchiliklar, urushlar kabi hodisalar sabab bo‘ladi.

“Til orollari” atamasini fanda birinchilardan bo‘lib, A.I.Domashnev o‘zining “Til oroli – tillarning tarqalish areallari sifatida va lingvistik tadqiqot obyekti” («языковый остров» как тип ареала распространение языка и объект лингвистического исследования) deb nomlangan ishida qo‘llaydi.

Mazkur tushuncha ostida o‘znining asosiy yadrosidan ajralib qolgan, boshqa siyosiy-hududiy chegaralarga (davlatlarga) tushib qolgan, shuningdek, muayyan til (sheva) arealida boshqa til yoki shevalar amal qilayotgan lingvistik izoglossalar tushuniladi. Masalan, Afg‘onistonda mavjud o‘zbek tilini va shevalarini xuddi shu tipga mansub deb hisoblash mumkin. Chunki, u yerda amal qilayotgan o‘zbek tili o‘zining asosiy markazlaridan(yadrosidan) siyosiy-hududiy jihatdan ajralib qolgan.

Ushbu o‘zbek tili qo‘llanilayotgan hududlar boshqa tilli (pushtun tili) areallar bilan o‘ralgan, shu bois mazkur dilaekt va shevalar juda sekinlik bilan o‘zgaradi, kam taraqqiy qiladi. Asosiy mazrkazda qo‘llanilayotgan shakllar esa, tez o‘zgarib boradiki, Afg‘onistondagi “o‘zbek tili oroli”da arxailk shaklning juda ko‘p vaqt saqlanib qolishiga sabab bo‘ladi.

Bu kabi misollarni O‘zbekistonning Turkmaniston, Tojikiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston bilan chegaradosh hududlaridagi, boshqa siyosiy-hududiy arealga tushub qolgan o‘zbek tili va shevalari uchun ham qo‘llash mumkin.

“Til oroli”ning yana bir xususiyati shundaki, uning leksikonida o‘sha til orolini o‘rab olgan lingvistik arealga xos izoglossalar ancha ko‘p bo‘lishi bilan asosiy yadroda qo‘llanilayotgan tildan keskin farq qiladi. Masalan, Qirg‘izistondagi o‘zbek dialektlarida qirg‘iz tilining lisoniy birliklari, Tojikistondagi o‘zbek shevalarida tojik tilida xos lisoniy birliklar, Turkmanistondagi o‘zbek shevalarida turkman tilining lisoniy birliklari ko‘pligi bilan xarakterlanadi.

Fonetik, leksik va morfologik izoglossalar haqida

Ilmiy adabiyotlarda izoglossalarning bir necha xil ko‘rinishlari haqida gap boradi. Jumladan: “fonetik izoglossa” yoki “izofonema”; “leksik izoglossa” yoki “izoleksema”; “morfologik izoglossa” yoki “izomorfema” va boshqalar.

Fonetik izoglossa yoki izofonema. Mazkur atama ostida turli sheva va lahjalar uchun umumiylit kasb etuvchi tovushlar (fonemalar)ning qo‘llanish areallari nazarda tutiladi. Masalan, “j” lashish hodisasi faqat qipchoq lahjalaridagina mavjud bo‘lmasdan, qorluq lahjasining ham muayyan hududlarida, xususan, Qashqadaryo, Surxondaryo lingvistik areallarida ham kuzatiladi. Mazkur hodisani (ya’ni “j” lashishni) o‘sha areallarning *izofonemasi* yoki *fonetik izoglossasi* deb hisoblash mumkin.

O‘zbek shevalarining fonetika bo‘yicha lingvistik atlaslarini tuzishda shevalardagi quyidagi til hodisalarining izofonemalarini kartalashtirilishi mumkin:

1. Shevalardagi unli fonemalar miqdori, cho‘ziq va qisqa unlilar;
2. Umumturkiy “a” fonemasining shevalardagi sistematik ko‘rinishlari;
3. Shevalarda birlamchi cho‘ziq unlilarning mavjudligi va ularning talaffuzi;
4. Singarmonizm qonuning buzilishi sabablari;
5. Unli tovushlarning mosligi (umlaut hodisasi¹) va boshqalar.

Shu fonetik hodisalar asosida quyidagi fonetik izoglossalarni ko‘rsatish mumkin:

Shevalarda orqa qator “a” fonemasining saqlanganligi yoki mavjud emasligi; Arab tilidan o‘zlashgan «ayn» va «hamza» kabi tovushlarning (*näglät//lä’nät*, *şigir//she:r*, *pīğil//fe:l*, *Nugmän//Nu’mān* va boshqalarning) shevalarimizda turlicha o‘zlashganligi; “o” fonemasining so‘zlarning birinchi, ikkinchi va boshqa bo‘ginlarida talaffuz etilishi, uning lablangan va lablanmagan holatlari, lablangan “o” unlisining shevalardagi talaffuzi; “ou” umlaut hodisasi; “ö” fonemalari faoliyatining torayishi; lablangan “u” unlisining ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda qo‘llanishi; shevalarda u~o hodisasi; i, ī fonemasining shevalardagi turli ko‘rinishlari, diftonglar va boshqalar.

¹ Umlaut//Umlaut (умляут//умлаут) nemischa “umlaut” – qayta ovozlanish, qayta unlilanish so‘zidan olingen bo‘lib, fonetik hodisa sifatida Yakob Grimm tilshunoslikka olib kirgan. Umlaut keyingi bo‘g‘indagi unlining ta’sirida a,o,i unlilarining tembr o‘zgarishini bildiradi. Umlaut – regressiv assimlatsiyani yuzaga keltiradi.

Leksik izoglossa yoki izoleksemalar. Ushbu atama turli dialektlarda bir-biriga yaqin shakllarga ega bo‘lgan leksik birliklarning tarqalish arealini anglatadi.

Mahalliy dialektal xususiyatlar: arxaizmlar, neologizmlar, dialektizmlar, turli tillarga oid elementlar va boshqa qismlarni o‘z ichiga oladi.

Arxaizmlar qadimda umumxalq tili joylashgan katta territoriyani ishg‘ol qilgan til hodisasi bo‘lib, hozir esa, adabiy til ta’sirida chetga chiqib, ma’lum territoriyadagi aholi talaffuzidagina saqlanib qolgan izoleksemalar qoldig‘idir.

Bir-biridan juda uzoqda bo‘lgan ayrim territoriyalarda, masalan, Qashqadaryo viloyatining Maymanoq qishlog‘ida va Janubiy Qozog‘istonning Qorabuloq kabi ayrim qishloqlaridagina saqlanib qolgan bunday arxaizmlar hozirgi jonli shevalarda ancha uchraydi. Masalan: *kärbiş*, *kärvüč* Xorazm (ad.orf. g‘isht), *aya* Xorazm, Qashqadaryo (ad.orf. qo‘l kafti, qo‘l kaftining o‘rtasi), *ärmut*, *almurt* (ad. orf. nashvati, Qashqadaryo, Xorazm) va boshqalar.

Morfologik izoglossa yoki izomorfema. Izomorfemalar sifatida areal lingvistikada, asosan, dilaektal leksemalar tarkibida mavjud bo‘lgan morfemalarning (affiks morfemalarning), shuningdek, turli so‘z turkumlariga oid xususiyatlarning tarqalish areallaridagi umumiyliliklar va tillarda o‘xhash holatda tarqalish areali tushuniladi.

Morfologik hodisalardan – shevalardagi so‘z yasalish modellari va ularning tarqalishi, so‘z yasalish va so‘z o‘zgarishidagi hodisalarni tanlashda shu formaning o‘zini registratsiya qilishdan tashqari, ularning ma’no va funksional farqlari ham hisobga olinishi kerak.

Ot turkumi bo‘yicha: qaratqich kelishigi formasi *-ning* va uning turli variantlari, tushum kelishigi formasi *-ni* va uning boshqa ko‘rinishlari, jo‘nalish kelishigi formasi *-ga*, uning *-kä*, *-qä*, *-ğä*, *-yä*, *-ä* kabi variaitlari, shevalarda o‘rin-payt kelishigi affiksi *-da* ning mavjudligi yoki yo‘qligi; chiqish kelishigi formasi *-dan* va uning *-din*, *-nän*, *-tän* kabi boshqa variantlari; egalik affikslariiing *-miz*, *-vuz*, *-uz* kabi ko‘rinishlari; ko‘plik affiksining *-lär//lar*, *-när//nar*, *-lä//la* singari variantlari; shevalardagi sifat yasovchilar va boshqa izomorfemalarni keltirish mumkin.

Olmoshlar bo‘yicha: shaxs olmoshlarining shakllari. Ko‘rsatish olmoshlarining ayrim ko‘rinishlari. So‘roq olmoshi va *-dir* bilan yasalgan gumon olmoshlarining *kimdü?*, *nimädü?* izomorfemalari.

Shevalarga xos ravish yasovchilar: *baz*, *bazäm*, *uyağ*, *buyağ*, *äqä*, *bäqqä*, *şördä*, *hởdä*, *berdä*, *u yäğdä*, *bu yäğdä* kabi ravish morfologik

izoglossalari. Fe'l bo'yicha izoglossa chegarasi dastlab hozirgi -äp (*baräppän*, *barämmän*), -ät (*barättim*, *barättiň*), -üt (*barüttlä*); o'tgan zamon sifatdoshidan (-ğan, -gän, -kän, -vüz, -miş: *barğamman*, *barğanbiz*, *bardüvüz*, *barimmış*) va boshqalar.

Izoglossalarning turli tuman ko'rinishlari haqida ilmiy manbalarda ma'lumotlar keltiriladi. Bu manbalarning aksariyati o'zbek tilida emas. Mazkur atamaning mohiyatini yanada aniqlashtirish keng qamrovli tadqiqotlarni talab etadi. Mazkur mavzuni bitta mashg'ulotda qamrab olish mushkulligini his qilamiz.

8-ma'ruza

Tillarning o'zaro ta'siri va o'tish zonalari hududining hosil bo'lishi

Reja:

1. Tillarning o'zaro ta'sir zonalari haqida
2. Areal sinonimlar
3. Irradiatsiya hodisasi haqida

Tayanch tushunchalar: *lingvistik yoki dialektologik orol*, *o'tuvchi zonalar*, *ta'sir zonalari*, *aralash zona*, *areallar*, *fonetik shakllar*, *grammatik shakllar*, *areal lingvistik karta*, *til landshafti*, *til oroli*, *o'z qatlam*, *o'zlashma qatlam*, *transkripsiya*, *irradiatsiya*, *innovatsiya markazi*

Tillarning o'zaro ta'sir zonalari haqida

Dialektlar tarixi shu til egasi bo'lgan xalqning tarixi hamdir. Uni o'rganish tarix va tilshunoslik uchun beqiyos ahamiyatga ega.

Areal lingvistika va dialektologiya tarixiy fanlar bilan ham mustahkam bog'liqdir. Hozirgi shevalar materiallari tarixchi uchun ham qimmatli manba hisoblanadi. Qadimda aholi qanday guruhlarga bo'lingan, qayerlarda istiqomat qilgan, qanday madaniy harakatlar bo'lgan, har xil tarixiy davrda shu xalqning turli qismi orasida o'zaro va qo'shni xalqlar bilan qanday aloqalar sodir bo'lgan – shulariing hammasi ma'lum darajada dialektlarda aks etgan bo'ladi. Hamma gap shundaki, dialektal farqlarning territorial tarqalishi shu xalq tomonidan bosib o'tilgan tarixiy yo'lning izi, qoldig'i hisoblanadi.

Dialektizmlar ma'lum areallarda joylashgan qator shevalarga xos so'zlar hamda fonetik va grammatik shakllarni o'z ichiga oladi. Bunday

so‘z va grammatik formalar, asosan, o‘sha arealdagi shevalarga xos xususiyatlar hisoblanadi. Masalan: *güriñ* (ad. orf. suhbat, Qashqadaryo), *käpčä* (ad. orf. belkurak, Xorazm, Qashqadaryo), *iňäk* (ad. orf. sigir, Qashqadaryo) va *boshqalar*.

O‘zbek xalqining o‘z tarixida turli xalqlar bilan uzoq davom etgan iqtisodiy, madaniy va boshqa munosabatlari tufayli o‘zbek shevalariga boshqa (fors-tojik, arab, mo‘g‘ul, rus) tillaridan anchagina til elementlari o‘tib qolgan. Bu elementlar o‘sha tillardan kirgan sheva qatlamlarida o‘rnashib qoladi. Masalan, *javgandum* (fors-tojikcha bug‘doy bilan arpaning aralashmasi, Qashqadaryo), *kälävüsh* (fors-tojikcha – do‘ppi, Qashqadaryo), *sätil* (fors-tojikcha – chelak, Samarqand), *xoräk* (fors-tojikcha – ovqat, Qashqadaryo), *käpčä* (fors-tojikcha – belkurak, Xorazm, Qashqadaryo), *müjärrät* (arabcha – balog‘atga yetish, Qashqadaryo), *ǵulva* (arabcha – suv trubasi, Qashqadaryo), *ǵunajin* (mo‘g‘ulcha – ikki yoshli sigir, Qashqadaryo), *ǵünän* (mo‘g‘ulcha – to‘rt yoshli ot, Samarqand, Qashqadaryo), *särpinkä* (ruscha – chit, gazlama, Qashqadaryo) va boshqalar.

Bu elementlar turli tillarga oid bo‘lib, o‘zbek adabiy tilida uchramaydi; ammo o‘zbek xalqining og‘zaki tilida, shevalarda o‘z ma’nolari bilan saqlanib qolgan.

Areal lingvistik tadqiqotlarga ko‘ra shevalar mahalliy va umumxalq til xususiyatlarining birligidan iborat. Shuning uchun ularni o‘rganish mahalliy til xususiyati bilan umumxalq tilining birligi va o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etish demakdir.

Umumxalq tiliga o‘xshash dialekt ham o‘zining og‘zaki va yozma shakliga ega. Uning yozma formasi, asosan, transkripsiya bilan yozib olingan dialektologik va folklor tekstlarida namoyon bo‘ladi.

Areal sinonimlar

Areal sinonimlar atamasi ostida adabiy tilga oid so‘zlarning ma’nosini bir-biriga yaqin bo‘lgan variantlarining har xil hududlarga har xil shaklda tarqalishi tushuniladi. Masalan, «ona» so‘zining *buvi* varianti Andijon, O‘sh, O‘zgan kabi shaharlarda, *ayi*, *anä* variantlari Toshkent va Sirdaryo areallarida, *äbä* varianti Namangan guruh shevalarida, *enä* varianti o‘zbek qipchoq shevalarida, *onä* varianti Qashqadaryo, Surxondaryo areallarida tarqalgandir.

Garchi bu so‘zlarning har qaysisi ma’lum geografik chegara bilan xarakterlansa ham, ular ma’no jihatidan o‘zaro sinonim hisoblanadi. Ma’lum geografik areal vakili bu so‘zlardan bittasini ishlatgani holda, ularning boshqa variantlarining ma’nosini ham tushunadi.

Areal sinonimlar o‘zbek shevalari joylashgan hududni markaziy (Toshkent, Guliston, Jizzax), shimoliy (Turkiston areali) shevalari, shimoli-g‘arbiy (Farg‘ona areallari), janubiy-sharqiy (Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo), shimoli-sharqiy (Urganch, To‘rtko‘l, Toshhovuz) kabi areallarga ajratish bilan birga adabiy til va dialektlar orasidagi o‘zaro lingvistik ta’sir va munosabatlarni belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Dialektlarning tarixiy taraqqiyoti va hozirgi takomilini o‘rganishda dialektlar lug‘at tarkibini yagona tizim holida tadqiq etuvchi areal leksikologiya (regional leksikologiya) muhim rol o‘ynaydi.

Qadimgi so‘z va formalar bilan bir qatorda shevalarimizda qadimgi iboralar ham o‘zining asl ma’nosini yo‘qtgani holda boshqa ma’no ottenkasi bilan saqlanib qolishi mumkin. Toshkent shevasida «*yolgä atlänmaq*» iborasi mavjud. Bu ibora umuman biror yoqqa borishga tayyorgarlik ko‘rish ma’nosida qo‘llaniladi. Masalan, *Shäripäxan atläniñ, hazir ketämiz. U öyide atlänip turipti* (ya’ni jo‘nashga tayyor holda turibdi).

Hozirgi o‘zbek tilida *atlänmaq* so‘zi o‘zining asl ma’nosida, otni egarlab, yuganlab, ustiga minib jo‘nash ma’nosida ishlatiladi. Toshkent shevasida esa *atlänmaq* so‘zidan ot ishtirokisiz, umuman biron yoqqa jo‘nash ma’nosini anglashiladi. Miniladigan otning o‘zi hech qachon ko‘zda tutilmaydi. Nega bunday? Qadimda kishilarimiz uzoq masofaga, asosan, ot vositasida, ya’ni otlanib jo‘naganlar, *atlänmaq* iborasi qadimdan tilimizda saqlanib qolgan holda vaqt o‘tishi bilap otning transport vositasi sifatidagi roli ko‘p jihatdan yo‘qolganligi sababli mazkur ibora otsiz, biron narsa vositasida yoki vositasiz, umuman, *jo ‘namoq ma’nosiga ko‘chgan xolos*.

Qashqadaryo shevalarida *avul qidirip ketmaq*, *ävulgä ketmaq* iboralar mavjud bo‘lib, bu iboralar mehmonga borish ma’nosini bildiradi. Bunda umuman mehmonga borish, qishloqqami, shahargami, qarindoshlarnikigami, biribir, qayerga mehmonga ketgan bo‘lsa, unga nisbatan *avulgä ketti* yoki *avul qidirip ketti* iborasi qo‘llaniladi. Masalan: *enäm ävul qidirip ketti, apäm avulgä ketti* (ad. orf. onam mehmonga ketti).

Shuni ham aytish kerakki, bu shevalarning o‘zida qishloq, turar joy ma’nosidagi *avul* so‘zining o‘zi mutlaqo ishlatilmagani holda, *avulgä ketti* iborasi mavjud. Biror joyga uzoqroq muddatga tomosha qilish, dam olish (Toshkent shevasida *oynäp keliş*) uchun ketish esa, *qidirip ketti* iborasi vositasida aytildi.

Fikrimizcha, bunday iboralar urug‘chilik va qabilachilik davrlarini o‘zida aks ettirgan qadimgi dialektizmlar qoldig‘i bo‘lsa ajab emas. Chunki urug‘chilik va qabilachilik davrlarida odamlar, avvalo, yashash va qishlash uchun o‘zlariga boshpana, ya’ni *ovul* qidirib topganlar. So‘ngra esa, qaysi ovulga bormasin doim o‘zlarining urug‘dosh va qabiladoshlarini izlab, qidirib yurganlar. O‘sha tarixiy davrni o‘zida aks ettirgan *ävul qidirip ketti, qidirip ketti* iboralari o‘z shaklini haligacha o‘zgartirmasdan avloddan avlodga o‘tib, xalq tilida tirik holda saqlanib kelmoqda. Bu iboralarning mazmuni esa, butunlay o‘zgarib, *mehmonga ketdi, dam olish uchun ketti* kabi ma’nolarga ko‘chgan.

Irradiatsiya hodisasi haqida

Irradiatsiya atamasi lotin tilidan olingan bo‘lib, *irradiare* – “nur taratmoq”, “yog‘dulantirmoq” ma’nolarini anglatadi. Termin aslida fizika sohasiga oid bo‘lib, areal lingvistikada muayyan til yoki shevaning boshqa areallarga tarqalish hodisasini bildiradi.

Muayyan leksemaning boshqa so‘zlar yoki morfemalar bilan o‘xshashligi (tovush tarkibining yaqin bo‘lib qolishi) sababli yuzga keladigan ma’nosи *irradiatsiya hodisasini* keltirib chiqaradi. Mana shu ma’noning “nurdek taralishi” **irradiatsiya** deyiladi.

Ammo til va dialektlar taraqqiyotining qadimiyligi davri uchun xarakterli bo‘lgan ayrim hodisalarni izohlashda yondosh tillar va shevalardan hamma vaqt ham material topilavermaydi. Masalan, Namangan guruh shevalari uchun xarakterli bo‘lgan “r” undoshining o‘zidan keyin kelgan hamma til oldi undoshlariga (*tüssun*<*tursun*, *baddi*<*bardi*, *jüjjin*<*xurjun*, *kättiškä*<*kartoshka* kabi) singib ketishi Farg‘ona vodiysidagi boshqa shevalarda uchramaydi. Ammo aynan shu hodisaning o‘zi O‘zbekistonning janub qismida joylashgan Qashqadaryo viloyatidagi shahar tip shevalarida mavjud.

Bu hodisaning innovatiya markazi qaysi ekanligi va uning irradiatsiyasi tarixan qay tomondan qay tomonga yo‘nalganligi haligacha o‘zining areal lingvistik bahosini olgani yo‘q. O‘zbek shevalari mukammal areal lingvistik atlasi yaratilganda mana shunga o‘xshash ko‘pgina muammoli masalalar yechilgan bo‘lar edi.

Chunonchi, masofa jihatdan bir-biridan ancha yiroq Toshkent, Qarshi va Shimoliy Afg‘oniston o‘zbek shevalari uchun xarakterli bo‘lgan egalik affiksi va kelasi zamon fe’li formasi -*vuz* (*anavuz*, *baravuz* kabilarni) yondosh turkiy tillarning birontasida uchratmaymiz. Lekin shu affikslar hamma singarmonistik variantlari bilan (*oğluvus* –

«o‘g‘limiz», *aldivis* – «biz oldik», *ostuvus* – «biz o‘sdik» kabi) tuva tilida mavjudligini ko‘ramiz.

Shuningdek, boshqa o‘zbek shevalarida kamdan-kam uchraydigan o‘zbek adabiy tilidagi «ota» so‘zining Toshkent shevasidagidek *ädä* shaklida qo‘llanishi ham xuddi shu tuva tilida mavjud. Agar turkiy tillarning areal lingvistik atlasi mavjud bo‘lganda edi, bu hodisaning innovatsiya markazi (asl manbayi) va irradiatsiyasi aniqlangan bo‘lar edi.

O‘zbek adabiy tiliga tayanch bo‘lgan shahar shevalarida tushum va qaratqich kelishigi qo‘shimchalari bitta formal ko‘rsatkichga ega. Ya’ni, tushum qo‘shimchasi *-ni* va uning *-di*, *-ti* kabi variantlari bilan talaffuz etiladi. O‘zbek adabiy tiliga qaratqich kelishigi qo‘shimchasi o‘zbek tilining qipchoq va o‘g‘uz dialektlaridan qabul qilingan. O‘zbek qipchoq shevalarida bu forma o‘zbek tiliga qo‘shni bo‘lgan barcha turkiy tillardagidek hamma singarmonistik variantlari bilan barqaror.

O‘zbek shahar shevalarida qaratqich kelishigi formasi qanday yo‘qolganligini isbotlovchi biron dalil yo‘q. Mazkur shevalarda bu forma azaldan bo‘lmasligini isbotlovchi fakt ham mavjud emas. Lekin turkiy tillardan qorachoy-bolqor tilida ham *jaşlani anasi* – «yoshlarning onasi», *maşinalani qayısisi jeñil jyuriydyu* – mashinalarning qaysisi yengil (tez) yuriydi (у которой из машин большая скорость)» kabi xuddi o‘zbek shahar shevalaridagidek qaratqich va tushum kelishigi formalarining faqat bitta formal ko‘rsatkich(-ni)ga ega ekanligini ko‘ramiz.

Bu tasodifiy o‘xhashlikmi? Yoki o‘zbek shahar shevalari bilan qorachoy-bolqor tilida mazkur hodisa bir xil qonuniyat asosida yuz bergenmi? Yoki bo‘lmasa bu xususiyat har ikkala tilning ichki rivojlanish qonuniyati asosida paydo bo‘lganmi? Agar bu hodisa umumturkiy qonuniyat bo‘lsa, uning innovatsiya markazi qayerda va irradiatsiyasi qaysi tomongan yo‘nalgan?

Shevalarimizdagи shunga o‘xhash ko‘pgina noaniqliklar boshqa turkiy tillarda mavjud bo‘lishi mumkin. Turkiy tillarni qiyosiy-tarixiy o‘rganish va milliy tillar shevalari areal lingvistik atlasini yaratish ana shunday noaniqliklarni bartaraf qilish uchun ochqich bo‘lishi shubhasiz.

Demak, areal lingvistika materiallari faqat tilning ichki strukturasini tekshirish bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki u xalqning qadimgi tarixini ham o‘zida aks ettiruvchi tilning tashqi tarixi bilan bog‘liq ilmiy xulosalarga ham olib kelishi mumkin.

9-ma’ruza

Ikki til o‘tish zonalaridagi o‘zgarishlar

Reja:

1. Qardosh tillarning o‘tish zonalari haqida
2. Qardosh bo‘lmaqan tillarning o‘tish zonalari
3. Dialektlarning o‘zaro ta’siri va o‘tish zonalari

Tayanch tushunchalar: *lingvistik yoki dialektologik orol, o‘tuvchi zonalar, ta’sir zonalari, aralash zona, areallar, qardosh tillar, qardosh bo‘lmaqan tillar, tillarning chatishuvi, til landshafti, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, trnaskripsiya, irradiatsiya, innovatsiya markazi*

Qardosh tillarning o‘tish zonalari haqida

Bir-biriga yaqin bo‘lgan tillar va dialektlarning o‘zaro to‘qnashuvi yuz beradigan areallarda faol munosabatlar amal qilayotgan bo‘lsa, ikki hududning oraliq chegaralarida alohida lingvistik xususiyatlar yuzaga kelishi mimkin. Ya’ni, yonma-yon holda qo‘llanilib kelinayotgan dialektlarning har ikkisiga ham o‘xshash bo‘lgan alohida sheva ko‘rinishi yuzaga keladi.

Yuzaga keladigan dialektni *chatishgan sheva* yoki bu chatishuv tillar o‘rtasida yuz berayotgan bo‘lsa *chatishgan til* deb yuritish mumkin. Bunday chatishmalar haqida dialektolog olimlar bir qancha ilmiy faktlarbi keltirib o‘tganlar. V.Shteynitsning ta’kidlashicha, xanti dialekti (ханты-мантийский автономный округ) o‘ziga yondosh areallarda joylashgan ko‘pgina dialektlarning xususiyatlarini o‘zida jamlagan bir shaklda qo‘llanilmoqda¹.

Bunday hodisalarни o‘zbek shevalari va lahjalari tarqalgan hududlarga ham taalluqli deb hisoblash mumkin. Jumladan, Qirg‘izistonning O‘sh viloyati va O‘zbekistonning mazkur hududlarga chegaradosh areallaridagi og‘zaki o‘zbek tili chegaradan uzoqda mavjud bo‘lgan so‘zlashuv o‘zbek tili bilan katta farqlarga ega bo‘lishi tabiiy holat deb baholanishi lozim. Chunki tillarning xususiyatlari tekshirilganda ularning tabiatan yaratilgan mavjudotlar va hodisalar bilan aynan o‘xshash ekanligi namoyon bo‘ladi. Shuning

¹ Штейниц В.К. Хантыйский (остяцкий) язык. Языки и письменность народов Севера, ч.1. –М. –Л., 1937. –С.196

uchun ham tillarni “tabiiy jarayon”, uni sun’iy ravishda paydo qilib bo‘lmaydi degan asosli qarashlar yuzaga kelgan.

Masalan, mazkur arealda hozirgi zamon hosil qiluvchi *-moqda* affiksining *-makta* shakliga ega bo‘lishi ilmiy manbalarda keltirib o‘tilgan¹.

Xuddi shunday chatishma ko‘rinishini olgan o‘zbek so‘zlashuv tilini O‘zbekiston va Turkmaniston davlatlari chegaralariga yaqin areallarda ham kuzatish mumkin. Xususan, Turkmanistonning Toshhovuz viloyati, Ko‘hna Urganch regionlari arealida mavjud tilni turkman va o‘zbek tillarining chatishuvi asosida yuzaga kelgan bir ko‘rinish deb hisoblash mumkin. Xorazm viloyatining Turkmaniston bilan bilan chegaradosh hududlarida ham turkman tilining ta’sirini inkor etib bo‘lmaydi.

Aynan shunday holatni O‘zbekistonning Qozog‘iston bilan chegaradosh areallarda ham kuzatish mumkin. Tillarning bunday o‘tish zonalaridagi hodisalar o‘sha arealdagina mavjud bo‘ladi.

Ikkita mustaqil tillar yoki shevalarning bir-biriga chegaradosh areallardagi chatishma ko‘rinishlari **o‘tish zonalari** (tili yoki dialekti) deb yuritiladi. Chunki bunday hududda qo‘llanilayotgan dialekt yoki tilning aniq bir tomonga taalluqli shakli xususiyatlari yetakchilik qila olmaydi.

N.Z.Gadjievaning fikricha, bir-biriga ta’sir o‘tkazayotgan tillar o‘rtasida ko‘rinmas kurash, dominantlikka intilish jarayonlari kechib turadi. Bunday holatdagi kurash bittasining tanlanishi bilan yakunlanadiki, bunda bellashayotgan ikki tildan birining lingvistik xususiyati tanlanishi uchun muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy-lingvistik faktorlar asosiy rolni o‘ynaydi.

Chatishgan dialektlar yoki tillar nafaqat yonma-yon joylashgan areallarda ro‘y beradi, balki bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib kelganlar bilan mahalliy til yoki shevalarda muloqot qiluvchilar tili bilan ham chatishuv yuzaga kelishi mumkin. Masalan, Xorazm viloyatining Urganch tumanida turkman millatiga mansub aholi butun bir mahalla bo‘lib istiqomat qilib kelishadi. Mazkur hududda turkman tilidagi maktablar faoliyat olib bormoqda. Mazkur arealidagi turkman tili ularning asosiy *innovatsiya markazidan* ancha yiroqda joylashgan.

¹ Гаджиева Н.З. Тюркоязычные ареали Кавказа. –Москва, Наука. 1979. –С. 132

Mazkur areal tevarak atrofi o‘zbek tili va shevalari bilan o‘ralgan bo‘lgani uchun shu yerdagi o‘zbek tili va shevalari bilan o‘zaro to‘qnashuv yuz bergen hamda *o‘tish zonalari* vujudga kelgan. Bu kabi til landshaftlarini ilmiy manbalarda “til orolchasi” yoki “lingvistik orol” (языковий остров) atamalari bilan yuritadilar.

Shunga o‘xshash holatni Qoraqalpoq tili bilan o‘zbek tilining o‘zaro ta’siri doirasida ham ko‘rish mumkin. Qoraqalpoq tilida so‘zlashuvchi aholi ham ko‘p tomondan o‘zbek tilli aholi bilan ijtimoiy-tarixiy munosabatlarda bo‘lib kelgan. Shu boisdan mazkur regionning ham o‘zbek tilli aholi bilan to‘qnash kelgan hududlarida chatishuv yuz bergen areallar ham mavjud bo‘ladi. Masalan, Mang‘it tumanining ayrim areallarida o‘zbek qipchoq lahjasining Qoraqalpoq tiliga juda singib ketgan variantlari yuzaga kelgan. U arealda qipchoq lahjalarida nisbatan kamroq kuzatiladigan “j” lashish izofonemasining tarqarilishi faollashadi.

Qardosh bo‘limgan tillarning o‘tish zonalari

Muayyan til boshqasi bilan to‘qnash kelishi uchun quyidagi holatlar asosiy sabablar sifatida ko‘rsatiadi:

1. Ularning areal joylashishi bir-biriga yaqin bo‘lishi kerak. Yaqin areallarda yashovchi til vakillarining o‘zaro lingvistik munosabatlarda to‘qnashuv va chatishuv yuz beradi.

2. Lingvistik adabiyotlarda tillarning to‘qnash kelishi uchun ularning joylashish hududi yaqin bo‘lmasligi ham mumkinligini keltiriladi. Ba’zan uzoq o‘lkalardagi til vakillari bilan ijtimoiy-tarixiy, siyosiy-harbiy munosabatlar natijasida ham tillarning to‘qnashuvi yuz berishi mumkin. Masalan, VIII asrda o‘zbek tilining arab tili bilan, XIII asrda mo‘g‘ul tillari bilan to‘qnashuvi, shuningdek XIX asrga kelib o‘zbek tilining rus-yevropa tillari bilan to‘qnashuvlari yuz bergen va bu jarayonlar tillar va dialektlarga o‘zining jiddiy ta’sirini o‘tkazgan.

3. Tillar va dialektlarning to‘qnashuvi uchun ilm-fan aloqalari va savdo-sotiq munosabatlari ham muayyan rol o‘ynaydi. “Xalqaro aloqalarning kengaya borishi, fan, madaniyat, siyosat va xalq xo‘jaligi sohasidagi ilg‘or tajriba almashuvlar, dunyoning turli burchaklaridan kelgan xabar va ma’lumotlarni har kim o‘z ona tilida qayta ishlab chiqishi kabi obyektiv va zaruriy omillar tillar rivojiga,

uning lug‘at tarkibining tashqi manbalar hisobiga boyib borishiga barakali ta’sir qiladi¹”.

Demak, qardosh bo‘limgan tillarning o‘zaro ta’sir qilishi, to‘qnash kelishi uchun ularning yaqin arealda joylashgan bo‘lishi birlamchi mavjud bo‘ladigan hodisa ekan. Bunday to‘qnashuvga misol qilib, Tojikiston va O‘zbekiston areallarining chegara zonalarida mavjud o‘zbek tili va shevalarini keltirish mumkin. Ma’lumki, tojik tili bilan o‘zbek tili bitta oilaga mansub emas. Biroq mazkur tillarning chegara zonalarida yashaydigan aholi nutqida o‘zaro to‘qnashuvi yuz beradi.

Aynan shunday areallarda har ikki til uchun ham umumiylit belgilarini namoyon qiluvchi *aralash zonalar* ham vujudga keladi. “Tojikistonning Ko‘lob, Qo‘rg‘ontepa, Xo‘jang viloyatlari hududida qarluqlar istoqomat qiladi²”. Demak, mana shu lingvistik areallarda o‘zbek tilining qarluq lahjasini bilan tojik tilli shevalarning o‘zaro to‘qnashuvi yuz beradi va aralash tipli zonalar vujudga keladi.

Mazkur hududdagi o‘zbek shevalarining irradiatsiyasi va innovatsiya markazi O‘zbekiston hududiga taallqli ekanligini sezish qiyin emas. Chunki, tojik tili bilan qarluq lahjasining qarindoshligi yo‘q. Ammo mazkur hudud aholisining tili va dialektlarida tojik tiliga mansub izoglossalar niyoyatda ko‘p bo‘ladiki, bu bilan arealdagi qarluq lahjasini innovatsiya markazidagi qarluq lahjasidan jiddiy tafovutlarga ega bo‘ladi.

Dialektlarning o‘zaro ta’siri va o‘tish zonalari

O‘tish zonalari nafaqat tillar o‘rtasida, balki dialektlar o‘rtasida ham vujudga keladi. Mamlakatimiz hududida mavjud dialektlar ham muayyan areallarda o‘zaro to‘qnash keladi va aralash zonalarni hosil qiladi. Jumladan, o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasini areallari, asosan, Xorazm viloyatining Xiva, Qo‘shko‘pir, Urganch, Hazorasp, Shovot va Xonqa tumanlari va Qoraqalpog‘istonning Beruniy, Tortko‘l tumanlari hududlariga to‘g‘ri keladi.

Ammo, dialektologik tekshirishlar mazkur lahjaning Buxoro viloyatidagi Qorako‘l, Olot tumanlari hududida ham mavjud ekanligini ko‘rsatadi. Muayyan dialektologik tadqiqotlarda o‘g‘uz lahjasining nafaqat mamlakatimiz hududida, balki undan tashqarida ham, xususan,

¹ Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. –Тошкент: Фан, 1987. –Б. 3

² Йўлдошев Т. Тоҷикистондаги ўзбек шевалари. –Тошкент: Фан, 1986. –Б.7

Turkmanistonning Toshhovuz viloyati, Turkistonning Sayram, Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Ibota qishloqlarida ham mavjudligini ko'rsatdi.

Ushbu areallardagi o'g'uz lahjasining innovatsiya markazi, albatta, O'zbekistonning shimoliy hududlari sanaladi. Ushbu regionlardagi o'g'uz lahjalarining izoglossalar tizimida ham umumiyliliklar va o'zgachaliklar mavjud. Mazkur shevalarning o'tish zonalari ularning hududiy yaqinliklari bilan birga, tarixiy-ijtimoiy xarakter bilan ham izohlanadi.

Masalan, Buxoro regionidagi o'g'uz lahjalarida ularni o'rab turgan tojik tilli shevalarning ta'sirida "o" unlisining lablanish izofonemasi paydo bo'ladi, yoki, Qozog'iston hududiga mansub o'g'uz lahjalarida ularni o'rab turgan qozoqlashgan shevalar ta'sirida "j" lashish fonetik izoglossalari vujudga keladi.

Xuddi shuday xususiyatlarni qipchoq va qarluq lahjalari uchun ham taalluqli deb hisoblash mumkin. Umuman, tillar va shevalarning o'tish zonalaridagi bir-biriga ta'siri masalasi, bugungi kun areal lingvistikasi oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Dialektlar va tillarning o'zaro munosabatlarini tadqiq qiluvchi areal tadqiqotlar o'z izlanuvchilarini kutib qoladi.

10-ma’ruza

O‘zbek tili shevalarini xaritalashtirish muammosi

Reja:

1. O‘zbek shevalarini areal kartalashtirish harakatlari va muammolari
2. Shevalardagi izoleksemalarni mavzu guruhlariga ajratib kartalashtirish
3. O‘zbek shevalaridagi izofonemalarni guruhlarga bo‘lib kartalashtirish

Tayanch tushunchalar: *areal karta, kartalashtirish, shahar tip shevalari, dastur-so‘roqlik, j-lovchi shevalar, ikki tilli shevalar, eksperimental fonetika, artikulatsiya, informant, palatogramma, lingrogramma, rentgenogramma, labiogramma, spektrogramma, illyustrativ xarakter, diftong*

O‘zbek shevalarini areal kartalashtirish harakatlari va muammolari

Areal lingvistika fanining asosiy va muhim xususiyatlaridan biri uning ko‘rgazmaliligidir. Dialektologik tadqiqotlardan ajralib turuvchi jihatlaridan biri, unda dala sharoitida ish ko‘rilmaydi, balki dialektologik laboratoriyalarda kartalashtirish faoliyati asosiy o‘rinda turadi. Dialektologiya fanida hududlarni kezib yurib material to‘planadi, ana shu materiallar asosida areal lingvistika ish ko‘radi.

Areal lingvistika fanining asosiy vazifalaridan biri til yoki shevalar tarqalishining lingvistik kartalarini tuzish hisoblanadi.

O‘zbek shevalarini kartalashtirish uchun tuzilgan dastur-so‘roqlik o‘z ichiga muhim masalalarni qamrab olishi kerak. Til tarixi mahalliy shevalar tarixi, shu til va shevalar egasi bo‘lgan xalq tarixi bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun birinchi karta mazkur territoriyadagi qadimdan mavjud bo‘lgan urug‘, qabila, elat va millatlarning joylashishiga bag‘ishlanishi lozim. Lekin ularning joylashishini aniqlash hamma hududlarda ham oson bo‘lavermaydi. Ayrim hududlar aholisi (ko‘pincha shaharda yashovchilar) o‘zining qadimda qaysi urug‘-qabilaga mansub bo‘lganligini unutib yuborgan.

Har xil millatlar yashaydigan hududni kartalashtirishda ular tillarining bir-biriga o‘zaro ta’siri masalasiga alohida e’tibor berish zarur bo‘ladi. Bunday material areal lingvistika fani uchun muhim ahamiyat

kasb etadi. Keyingi karta tegishli territoriyadagi shevalarning joylashishiga bag‘ishlangan bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston hududida o‘zbek shahar shevalari, shahar tipidagi qishloq shevalari, y-lovchi shevalar, j-lovchi shevalar, o‘g‘uz shevalari, ikki tilli (o‘zbek va tojik tilli, o‘zbek va turkman tilli, o‘zbek va qozoq tilli) shevalar mavjud. Bunday shevalarning bir-biri bilan o‘zaro munosabati, tarixiy taraqqiyoti va hozirgi takomili atlas materiallarida to‘la aks etishi lozim.

Fikrimizcha, tuzilishi lozim bo‘lgan o‘zbek shevalari atlasi uchun shevalar lingvistik xususiyatlarining quyidagi ko‘rinishlari kartalashtirilishi kerak. Nutq tovushlarining dialektal talaffuzini kartalashtirishda har bir tovushning xususiyati material yig‘uvchi shaxs tomonidan puxta o‘rganib, tekshirib chiqilishi lozim.

Tovushlarning paydo bo‘lish usuli va o‘rnini iloji boricha eksperimental fonetika laboratoriyalarda nutq tovushlarining fizik xususiyati haqida yig‘ilib sistemalashtirilgan materiallardan, unli va undoshlarning artikulatsion va akustik xarakteristikasining sxemasi, chertyoji va grafik fotosuratining matematik va grafik tasviri materiallaridan foydalanish orqali belgilash lozim bo‘ladi.

O‘zbek shevalarida nutq tovushlari artikulatsiyasi yaxshi tanlangan informantlar yordamida tayyorlangan palatogramma, lingvogramma, rentgenogramma, labiogramma, spektrogrammalarning tasviriy materiallari asosida kartalashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bu ishni amalga oshirishda tovushning mayda ottenkalarigacha farqlay oladigan dialektolog qulog‘ining ham xizmati kattadir.

O‘zbek shevalarida “o” (osmon) tovushining dialektal talaffuziga maxsus karta bag‘ishlangan bo‘lishi kerak. Ma’lumki, “o” (osmon) fonemasining talaffuzi bilan shevalarimiz bir-biridan farqli ravishda ajralib turadi.

Ayrim shahar shevalarida bu fonema lablarning to‘la ishtirokida talaffuz etilsa, ba’zi shevalarda bu holat to‘la mustahkamlangan emas. Shuningdek, ayrim shevalarda bu tovush so‘zning birinchi, ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi bo‘g‘inlarigacha o‘rnashgan bo‘lsa, ba’zi shevalarda birinchi bo‘g‘indan nariga o‘tmaydi. Shu holatni puxta aniqlash uchun ko‘pchilik shevalar vakillaridan informantlar olib, “o” (osmon) fonemasi labiogrammasining grafik materiallarini tayyorlash kerak bo‘ladi. Chunki o-lashish hozirgacha turkologiya fanida uzil-kesil hal etilmagan umumturkiy muammolardan sanaladi.

Singarmonistik o‘zbek shevalarida kontrast juft unlilar tabiatini aniqlash ham lingvogramma yordamisiz amalga oshmaydi. Tanglay va lab garmoniyasiga asoslangan har bir unli bo‘yicha o‘tkazilgan palatogramma va labiogramma materialiga asoslanib, ularning talaffuz qonuniyatlarini kartalashtirish mumkin.

O‘zbek shevalarini kartalashtirish (atlaslashtirish) bo‘yich bir qancha muammoli o‘rinlar ham mavjud:

1. O‘zbek shevashunosligida tuzilgan kartalarning illyustrativ xarakterda ekanligi.

2. Kartalashtirishgacha bo‘lgan bosqichning mohiyati aniq belgilanmaganligi.

3. Kadastrlash (qayd qilish)ning yagona shakli joriy qilinmaganligi.

4. Mikroatlas va makroatlaslarning mazmuniy yo‘nalishi va ularda ask ettirilgan muammoiy masalalar.

Shevalardagi izoleksemalarni mavzu guruhlariga ajratib kartalashtirish

O‘zbek shevalarida mavjud leksik izoglossalarni kartalashtirishda muayyan tamoyillarga amal qilish orqali tizimli yondashuv alohida o‘rin egallaydi. Shu boisdan bunday birliklarni alohida mavzuiy guruhlarga ajratgan holda kartalashtirish yaxshi effekt keltiradi.

Dastavval **inson boshi bilan bog‘liq dialektal izoleksemalar guruhini** keltiramiz. Bunday kartalar *baş, källä, tovä, sär* (*källäsigä kiydi, toväsigä urdi, säri ağridi*) izoleksemalarining qo‘llanish chegaralarini aniqlashga bag‘ishlangan bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

Yuz ma’nosini anglatuvchi dialektal leksemalar “*yüz*” so‘zi o‘zbek shevalaridan shahar tipida va ikki tilli shevalarda ko‘proq qo‘llaniladi. Qishloq tip shevalarida “bet” so‘zi juda aktiv. J-lovchi shevalardagi *bet, aft, turq, bashara* so‘zlarining keng qo‘llanilishi kartaga tushirilmog‘i lozim. Yana bir karta *peşanä* va *mäñläy* so‘zlarining tarqalish arealini aniqlashga bag‘ishlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Qarindoshlik ma’nosini ifodalovchi leksemalar. O‘zbek shevalarida qarindoshlik: *uruğ, aymaq, tuxum, jigär, bavur, qarindaş, yaqin, zat, topar, tamir* kabi so‘zlar orqali ifodalanadi. Bunday so‘zlarning tarqalish areali alohida kartada yoritilishi lozim. Ushbu mavzu guruhini ichki tarmoqlarga ajratish mumkin. Masalan: “*büvi*”, “*baba*” so‘zlarining tarqalish areali; “*anä*”, “*atä*” so‘zlarining tarqalish areali; “*ämäki*”, “*tagä*”,

“*xalä*”, “*xaläväčča*” so‘zlarining tarqalish areali va boshqalrni alohida kartalshtirish mumkin.

O‘simliklar bilan bog‘liq dialektal izoglossalar. Rayhon – “*nazboy//nazvay*”, nashvati, nok – “*almurut*” kabi dialektal birliklarning tarqalish areali alohida kartalarda berilishi lozim. Bunday ma’noviy guruhlarni ko‘plab davom qildirish mumkin.

O‘zbek shevalaridagi izofonemalarni guruhlarga bo‘lib kartalashtirish

Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek shevalarida qadimgi fonetik hodisalardan biri diftonglardir. *j*- lovchi shevalarimizda v-diftongi (*votav<o ‘tov, voynaşqan<o ‘ynashgan*), y-diftongi (*yertäň<erta, yenesi<onasi*) va boshqalar uchraydi. Shahar tip shevalarimizda esa, diftonglar *keläyčiydi, bariydi* kabi so‘z o‘rtasida ham qo‘llaniladi. Shuning uchun maxsus karta shevalarda so‘z boshida va so‘z o‘rtasida sodir bo‘ladigan diftonglar xarakteriga bag‘ishlangan bo‘lishi kerak.

Ayrim kartalar esa shevalarda mavjud bo‘lgan birlamchi va ikkilamchi cho‘ziq unlilar izoglossasini aniqlashga bag‘ishlanishi lozim. Birlamchi cho‘ziq unlilar izoliniyasining boshlanishi va oxirini belgilash tilimiz tarixi uchun katta ahamiyatga ega. Undoshlar tushishi evaziga paydo bo‘ladigan ikkilamchi cho‘ziq unlilarning tarqalish areali shu kartada alohida belgi bilan ko‘rsatilishi lozim.

Jävap/juvap, sävap//suvap, yüvaş//yuvaş so‘zları o‘zagidagi ä//u tovush mosliklari ko‘pchilik o‘zbek shevalarida uchraydi. Bu hodisaning tarqalish arealarini aniqlab maxsus kartada belgilash zarur.

E//i: ekki//ikki, heč//hič, yeydi//yiysi, deb//dip kabi tovush mosliklarining mavjudligi tufayli o‘zbek shevalari o‘zaro farqlanadi. Masalan, so‘zlarning *ekki, hič, yiysi, dip* kabi talaffuzi ko‘pincha *j*-lovchi va qishloq tip shevalariga xos *yeydi, hech, deb* kabi aytilishi ikki tilli shevalar, asosan, shahar tip shevalarida mavjud. Bu hodisaning tarqalish areali aniqlanib, kartalashtirilishi kerak.

O//e//ä tovush mosliklari umumturkiy hodisa bo‘lib, ayrim o‘zbek shevalarida ham uchraydi. Masalan, Namangan shevasida “etik” o‘rnida *otuk* deyiladi. Toshovuz shevasida *ädik* deyiladi. Qorabuloq shevasida “echki” o‘rnida *očki* so‘zi qo‘llaniladi. Ayrim shevalarimizda “*bedänä*” so‘zining *bodänä* formasi mavjud. Bu hodisani o‘rganib chiqish va kartalashtirish areal lingvistika uchun muhimdir.

Umumturkiy «yurmoq» so‘zining o‘zbek shevalarida uch xil varianti mavjud. Ayrim o‘zbek shahar shevalarida bu so‘z eski o‘zbek tilidagidek

yüri, *yüridi*, *yürisä*, *yürimädi*, *yüriydi* kabi formalarga ega. Ko‘pchilik shevalarda hozirgi o‘zbek tilidagi shaklda (*yur* formasida), j-lovchi shevalarda *jur* shaklida uchraydi. Bu so‘zning turlicha talaffuz etilishi aniqlanib kartaga tushirilishi kerak.

O//u (*ö//ü*) tovush mosliklari bilan o‘zbek shevalari bir-biridan farqlanadi. Shahar shevalari va shahar tip qishloq shevalarida *öy//üy*, *köyläk//küyläk*, *komişh//kümişh*, *soyün//süyün* kabi talaffuz normasi mavjud. Qishloq tip va j-lovchi shevalarda esa, bu so‘zlar *üy*, *küyläk*, *kümişh*, *süyün* kabi ifoda etiladi. Bu hodisalarning o‘rni aniqlanib kartalashtirilishi kerak.

Ma’lumki eski o‘zbek tilida (*temur*, *xatun*, *barsun* kabi) so‘zlarning ikkinchi bo‘g‘inida (*u*) unlisi ishlatilgan. Bu xususiyat hozirgi ayrim shevalarimizda ham saqlanib qolgan. Bu so‘zlarning hozirgi o‘zbek tili va eski o‘zbek tili normasida talaffuz etilishi aniqlanib kartalashtirilishi lozim.

So‘z boshida y yoki j tovushining talaffuz etilishiga maxsus karta bag‘ishlangan bo‘lishi kerak. y-lashish va j-lashish xususiyati turli lahjalarga oid shevalarni bir-biridan ajratib turadi.

B//p tovush almashishi bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan uchta savol materiali asosida maxsus karta tuzilishi lozim:

1. Quyidagi so‘zlar boshida qaysi undosh tovush talaffuz etiladi: *bütün* yoki *pütiün*; *biştı* yoki *piştı*; *bičän* yoki *pičän*; *bičdi* yoki *pičdi*?
2. Mazkur so‘zlar o‘rtasida qanday undosh tovush keladi: *yäpädi* yoki *yäbädi*; *qäpädi* yoki *qäbädi*?
3. Bu so‘zlar oxirida qaysi undosh eshitiladi: *jäväb* yoki *juvap*, *kitab* yoki *kitap*?

P//v tovush almashinishi bo‘yicha alohida karta *čap*, *tap* so‘zları qo‘shimcha qabul qilganda o‘zakdagi *p* tovushi (*čavadi*, *tavadi* kabi) o‘zgaradimi yoki (*čapadi*, *tapadi* singari) o‘z holicha saqlanadimi? – degan savolning javobi asosida tuziladi. Shahar tip ikki tilli sheva vakillari talaffuzida yuqoridagi so‘zlar qo‘shimcha qabul qilganda o‘zgarmasdan talaffuz etilsa, ba’zi j-lovchi sheva vakillari nutqida esa, *čap* – *čavadi//čabadi*; *tap* – *tavadi//tabadi*; *kop* – *koväydi//kobäydi* singari ko‘rinishga ega. Bularning tarqalish areali ham kartalashtirilishi lozim.

Savollarga olingan javoblarning materiallari yuqoridagi unli va undoshlar talaffuzining tarqalish arealini belgilab beradi.

MUSTAQIL TA’LIM MASHG‘ULOTLARI UCHUN USLUBIY KO‘RSATMALAR

Talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va ko‘nikma hosil qilish uchun mustaqil ta’lim tizimiga asoslanib, fanga berkitilgan mutaxassislar rahbarligida mustaqil ish bajaradilar.

Bunda ular o‘tilgan mavzularni tahlil va talqin etadilar; qo‘sishimcha adabiyotlar hamda internet saytlaridan foydalanib, referatlar va ilmiy ma’ruzalar tayyorlaydilar, amaliy va seminar mashg‘ulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko‘rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish o‘quv dasturiga asoslangan holda quyidagi mavzularda tayyorgargarlik ko‘rish rejalashtiriladi:

№	Mustaqil ta’lim mavzulari	Ajr. soat
1	Areal lingvistika haqida umumiy ma’lumot	2
2	Areal lingvistikaning o‘zbek tilshunosligidagi o‘rni	2
3	Areal lingvistika fanining o‘rganish obyektlari	2
4	Areal tilshunoslik va tilning hududiy tarqalishi	2
5	Areal lingvistikaning shakllanishi va uning o‘rganilish tarixi	2
6	Fanning asosiy muammolari hamda hozirgi holati	2
7	Izoglos (dialektologik xaritada ma’lum bir tilda so‘zlashuvchi hududlar chegarasi), uning tarqalishi va tasnifi	2
8	Ma’lum bir tilning paydo bo‘lishi, uning hududiy tarqalishi, unga sabab bo‘lgan iqtisodiy, siyosiy, etnografik va madaniy omillar.	2
9	Hududiy yaqin bo‘lgan tillarning o‘zaro munosabati va ularning bir-biriga ta’siri	2
10	Areal lingvistika fani muammolarining tilshunoslikning boshqa sohalar bilan kesishuvi	2
11	Hududiy yaqin tillardagi o‘zaro ta’sir doirasi mavjud o‘tish zonalari, ya’ni vibratsion zonalarning hosil bo‘lishi	2
12	Lingvistik noturg‘unlikning kelib chiqish sabablarini	2

	tahlil qilish	
13	Tarixiy, tasviriy, qiyosiy tadqiqotlar olib borish natijasida to‘plangan materiallarni hujatlashtirish va xaritalashtirish	2
14	Ikki qo‘shni lajhalar va tillar orasidagi chegara va ularning kengayish xususiyatlari.	2
15	Asta-sekinlik bilan rivojlanuvchi til davomiyligi tamoyilini aniqlash va tahlil qilish	2
16	O‘zbek tili areal lingvistikasining shakllanishi.	2
17	Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lugat it-turk” asarida turkiy tillar taraqqiyoti va tarqalish ko‘lamni	2
18	Til taraqqiyotining hududiy kengayishi. Geografik chegaradosh tillar.	2
19	Areal lingvistikaning etnolingvistika, sotsiolingvistika va tipologiya bilan bog‘liqligi.	2
20	Madaniy va tarixiy maydon tushunchasi va uning taqsimlanish tamoyillari	2
21	O‘tish maydonlarinmg hosil bo‘lishi va ularning mustaqil tillarga bo‘lgan ta’sir doirasi.	2
22	Atlas xaritalar asosida ma’lum tilning tarqalish ko‘lamini o‘rganish Uning qo shni tillar bilan yaqinlik darajasi.	
23	O‘zaro ta’sir doirasidagi sheva, lahja va tillarning farq qiladigan ba’zi dialektal frazeologiya hamda uning dialektlararo qo‘llanishi.	2
24	O‘zaro ta’sir doirasidagi tillarning so‘z turkumlari va ularga xos xususiyatlar.	2
25	Tebranish ta’sir doirasidagi sheva, lahja va tillarda sintaksis. Ulardagi so‘z birikmasi va gaplarning o‘ziga xosliklari.	2
26	Tebranish hududidagi tillarning fonetik belgilari. Tillardagi undosh fonemalar va fonetik hodisalar talqini.	2
27	O‘zaro ta’sir doirasidagi tillarning farq qiladigan ba’zi xarakterli lug‘aviy xususiyatlari: antonim, omonim, sinonim, ko‘p ma’noli, eskirgan, tarixiy so‘zlar va neologizmlarning o‘ziga xosligi.	2

GLOSSARIY

Adstrat – lotincha “ad” – birga, yonida va “strata” qatlama’nolaridagi so‘zlardan olingan bo‘lib, turli xalqlarning uzoq muddatli lingvistik aloqlari tufayli bir tilning ikkinchisiga ta’siri.

Analitik karta – Bu kartada shartli belgilar sistemasiga, simvollarga suyaniladi va bir-biridan farqlanadigan belgilarning kelib chiqishi taxmin qilinadi.

Aralash zona – Bir til yoki dialekt ichida boshqa bir til yoki dialekt elementlarining mavjud bo‘lishi. O‘zbek shevalarida tojik tili elementlari aralashgan zonalarning O‘zbekiston va Tojikiston territoriyasida barqarorligi aralash zona sanaladi.

Areal – lotincha “area” – hudud, maydon so‘zlari ma’nosidan olingan. Tilshunoslikda fonetik, leksik va grammatik hodisalarining tarqalish hududi, regioni.

Areal lingvistika – lotincha “area” – hudud, maydon va “linguistik” – tilshunoslik so‘zlari ma’nosidan olingan bolib, lingvistik geografiya metodlari orqali til hodisalarining tarqalishini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi.

Areallar dinamikasi – ma’lum hududdagi tarixiy lingvistik qatlamlarning xronologiyasi, taraqqiyot bosqichlari.

Areal kartalar - Maxsus dastur-so‘roqlik asosida tayyorlangan, ma’lum til yoki shevalarga xos xarakterli xususiyatlarning tarqalish chegarasini aks ettiruvchi karta.

Arealogiya – areallar teoriyasi, areallarni o‘rganuvchi soha, ko‘proq geografiyaga taalluqli.

Areal-tipologik metod – areallar tiplari , turlari bo‘yicha alohida regionlarga bo‘lib tekshirish.

Areal atlaslar – Areal kartalarning albom shaklidagi sistemali to‘plami – areal (yoki dialektologik) atlas deyiladi. Areal atlas asosida

qilingan xulosalar undagi alohida kartalarning darajasidan va ularning o‘zaro uzviy bog‘lanishidan kelib chiqadi.

Areal lingvistik (umumareal) tamoyil – lingvistik kartalarni tuzish tamoyili(prinsipi) bo‘lib, dialektologik tamoyildan farqli ravishda tilning barcha sathlarini qamrab oladi.

Areal lingvistik karta – lingvogeografik tadqiqot usulining asosiy nuqtasidir. Lingvistik kartalar 2 xil metodga asoslanib tuziladi: 1. Lingvistik strukturani tadqiq qilish metodi. 2. Til landshaftini o‘rganish metodi.

Artikulatsiya – lotincha “*articulo*” – a’zolarga ajrataman so‘zidan olingan bo‘lib, fonetikada muayyan nutq tovushlarining talaffuzida ayrim nutq a’zolarining ishlatilish darajasini anglatadi.

Bilingvizm – ikki tillilik ma’nosini anglatadi. Lotincha “*bi*” – ikki va “*lingua*” – til so‘zlaridan olingan. Areal lingvistikada ikki til izoglossalarining baravar uchrashi.

Boshlang‘ich karta – tablitsa materiallari joylashtirilgan tayanch karta.

Dastur-so‘roqlik – muayyan arealdagi til tarixi, dialektlar tarixi va shu til va shevalar egasi bo‘lgan xalq tarixiga aloqador lingvistik materiallar to‘plash uchun tuziladigan savollarning dasturlashtirilgan to‘plami.

Dialekt – o‘zbek tilshunosligida “*sheva*” atamasiga mos keladi, “*dialekt*” xalqaro atama bo‘lib, lotincha “*dialektos*” so‘zidan olingan “mahalliy til” degan ma’noni bildiradi.

Diglossiya – lotincha “*di*” – ikki va “*glotta*” – til so‘zlaridan olingan. Bir tilning ikki yoki undan ortiq ko‘rinishlari. Biron hududdagi ikki tilga oid izoglossalarning baravar qo‘llanishini ham diglossiya atamasi ifodalaydi. Bu o‘rinda “bilingvizm”ning bir shakli.

Diaxron tavsiflash – tillarni yoki dialektlarning lingvistik xususiyatlarini tarixiy nuqtayi nazardan tavsiflash.

Dialektologik tamoyil – lingvistik kartalarni tuzish tamoyili(prinsipi) bo‘lib, areal lingvistik tamoyildan farqli ravishda faqat dialektlarni o‘rganishni qamrab oladi.

Diftong – lotincha “di” – ikki karra, “phtongos” – ovoz, tovush so‘zlaridan yasalgan. Ikki tovushdan tarkib topgan unli bir bo‘g‘inda kelishi. Shunga ko‘ra bir tovushga yaxlitlanuvchi unli.

Dialektal atlaslar – Areal kartalarning albom shaklidagi sistemali to‘plami – dialektologik (yoki areal) atlas deyiladi. Areal atlas asosida qilingan xulosalar undagi alohida kartalarning darajasidan va ularning o‘zaro uzviy bog‘lanishidan kelib chiqadi.

Dialektal bo‘linish – muayyan hududning dialektlari (shevalari) xususiyatlari ko‘ra bo‘linishi.

Etimologik ekskurs – lingvistik hodisalarning paydo bo‘lishi, kelib chiqishi yuzasidan tekshirish.

Eksperimental fonetika –nutq tovushlarini maxsus asboblar yordamida o‘rganadigan soha.

Ekstensional takson – rang-barang lingvistik hodisalarning muayyan areal tizimda mavjudligi. Masalan, o‘zbek tilli massivni ekstensional takson sifatida quyidagi belgilar xarakterlaydi: massivning areal rang-barangligi; massivning areal tartiblanishi; massivning murakkabligi; massivning sistemligi; massivning butunligi; massivdagi lingvoareal jarayonlarning zamon sathida tartiblanishi.

Fetish – Aleal lingvistikada so‘zsiz tan olinadigan eng dastlabki lisoniy hodisalar tushuniladi. Masalan, ma’lum arealda mavjud eng dastlabki izoglossalar.

Fonetik izoglossa – turli sheva va lahjalar uchun umumiylit kasb etuvchi tovushlar (fonemalar)ning qo‘llanish areallari nazarda tutiladi. Masalan, “j” lashish hodisasi faqat qipchoq lahjalaridagina mavjud bo‘lmasdan, qorluq lahjasining ham muayyan hududlarida, xususan, Qashqadaryo, Surxondaryo lingvistik areallarida ham kuzatiladi. Mazkur

hodisani (ya’ni “j” lashishni) o’sha areallarning *izofonemasi* yoki *fonetik izoglossasi* deb hisoblash mumkin.

Fonetik tamoyil – fonetik (prinsip) tamoyil areal lingvistikada dialektal leksemalarning tovush tizimiga asosan yozilish tamoyili.

Fonematik tamoyil – faqat fonemalarnigina hisobga olishga asoslangan tamoyil.

Fonetik shakllar – dialektal birliklarning turli xil, bir-biriga yaqin fonetik ko‘rinishlari. Masalan, *ko ‘z//go ‘z; bog ‘a//boqqa* va boshq.

Grafik tamoyil – areal lingvistikada izoglossaning qaysi xalq tili va grafikasidan olingan bo‘lsa, o’sha grafik shaklni saqlab qolish tamoyili.

Grammatik shakllar – areal lingvistikada morfologik izoglossalarni anglatadi. Masalan, dialektal affikslarning turli variantlari.

Hind-yevropa tillari – Dunyodagi tillar kelib chiqishi, qarindoshligi, lug‘aviy va grammatik jihatdan yaqinligiga qarab bir necha til oilalariga bo‘linadi. Yer yuzida **20ga yaqin til oilasi** bor. Til oilalari bobo til nomi bilan ataladi. Til oilalari o‘z navbatida til turkumlariga bo‘linadi. Shulardan biri hind-yevropa tillari oilasi bo‘lib, bu oilaga hind, eron, slavyan, boltiq, german, roman, kelt, anatoliy va tohar turkumlari kiradi.

Izoleksa – izoleksema

Izomorfema – Izomorfemalar sifatida areal lingvistikada, asosan, dilaektal leksemalar tarkibida mavjud bo‘lgan morfemalarning (affiks morfemalarning), shuningdek, turli so‘z turkumlariga oid xususiyatlarning tarqalish areallaridagi umumiyliliklar va tillarda o‘xshash holatda tarqalish areali tushuniladi.

Izofona – turli sheva va lajhalar uchun umumiylilik kasb etuvchi tovushlar (fonemalar)ning qo‘llanish areallari nazarda tutiladi. Masalan, “j” lashish hodisasi faqat qipchoq lajhalaridagina mavjud bo‘lmasdan, qorluq lajasining ham muayyan hududlarida, xususan, Qashqadaryo, Surxondaryo lingvistik areallarida ham kuzatiladi.

Izoglossa – Izoglossa termini grek tilidan olingan bo‘lib, “**isoglosse**” *isos* – “tekislik, maydon” va *glosse* – “nutq, til” ma’nolaridagi so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lgan. Mos hodisalarning u yoki bu a’zosi, bo‘lagi tarqalgan eng chet nuqtalarni tutashtiruvchi atlas kartasidagi chiziq(liniya) izoglossa deyiladi. Har xil sheva va lahjalardagi uchraydigan bir xil til hodisalari (birliklari) *izoglossa* sifatida kartalashtiriladi.

Innovatsiya markazi – U yoki bu til, yoki sheva hodisasining markazi. Masalan: “*-din*”ning asl markazi uyg‘ur tili tarqalgan territoriya bo‘lib, u o‘sha innovatsiya markazidan o‘zbek shevalariga tarqalgandir. Yoki “*-ning*” qo‘sishmchasining innovatsiya markazi qipchoq shevalari hisoblanadi, sekin-asta ulardan boshqa tip shevalarga o‘tib bormoqda.

Irradiatsiya – lotin tilidan olingan bo‘lib, *irradiare* – “nur taratmoq”, “yog‘dulantirmoq” ma’nolarini anglatadi. Termin aslida fizika sohasiga oid bo‘lib, areal lingvistikada muayyan til yoki shevaning boshqa areallarga tarqalish hodisasini bildiradi.

Izofonema – turli sheva va lahjalar uchun umumiylit kasb etuvchi tovushlar (fonemalar)ning qo‘llanish areallari nazarda tutiladi. Masalan, “j” lashish hodisasi faqat qipchoq lahjalaridagina mavjud bo‘lmashdan, qorluq lahjasining ham muayyan hududlarida, xususan, Qashqadaryo, Surxondaryo lingvistik areallarida ham kuzatiladi. Mazkur hodisani (ya’ni “j” lashishni) o‘sha areallarning *izofonemasi* yoki *fonetik izoglossasi* deb hisoblash mumkin.

Izoleksema – atama turli dialektlarda bir-biriga yaqin shakllarga ega bo‘lgan leksik birliklarning tarqalish arealini anglatadi. Mahalliy dialektal xususiyatlar: arxaizmlar, neologizmlar, dialektizmlar, turli tillarga oid elementlar va boshqa qismlarni o‘z ichiga oladi.

Intensoinal takson – ma’nosi nutq jarayonida yuzaga chiqadigan izoglossalarning muayyan arealda tarqalishi.

Informant – ma’lumot beruvchi. Dialektologik ma’lumot kimdan olingan bo‘lsa o‘sha manbani tushunish lozim.

Ikki tilli shevalar – o‘zbek va tojik tilli, o‘zbek va turkman tilli, o‘zbek va qozoq tilli shevalar ikki tilli shevalar hisoblanadi.

Illyustrativ xarakter – to‘plangan materiallar kartalar (atlaslar) shaklida ko‘rgazmalilik kasb etishi.

J-lovchi shevalar – O‘zbek tilining qipchoq dialekt zonasini juda katta arealga ega bo‘lib, j-lovchi o‘zbek urug‘-qabilalar guruhidan tashkil topgan. Hozirgi o‘zbek tilidagi *yur*, *yig‘moq*, *yemoq* kabi shakllar j-lovchi shevalarda *jur*, *jiymoq*, *jemoq* tarzida qo‘llaniladi. **j-lovchi** shevalar qorluq zonasining Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatilarida ham kuzatiladi.

Jonli dialektlar – hozirgi kunda muayyan arealda qo‘llanilayotgan shevalar jonli shevalar deb yuritiladi. Ma’lum davrlarda qo‘llanilmay qolgan shevalar esa “o‘lik shevalar”dir.

Kadastrlash – informant orqali olingan materialning qayd qilinishi, hujjatlashtirilishi tushuniladi. Hozirda o‘zbek dialektologiyasida kadastrashning yagona shakli joriy qilinmagan.

Kartografik metod – tillar va shevalarni areal kartalar orqali o‘rganish.

Kartalashtirish – to‘plangan lingvistik materiallarni areal kartalarga joylashtirish.

Kartalashtirish usuli – to‘plangan lingvistik materiallarni areal kartalarga joylashtirish orqali tekshirish, tahlil qilish usuli.

Korrespondent – areal lingvistikada muayyan territoriyaga chiqib, o‘sha yerli aholining tilida uchraydigan areal lingvistik (dialektologik) materiallarni yozib oluvchi.

Labiogramma – fonetikaga oid atama bo‘lib, so‘z tarkibidagi tovushlarning artikulatsioh holatida lablar ishtirokini yozib olish. Ko‘pincha maxsus tovushlarni tekshirish apparatlarida olib boriladigan faoliyatga aloqador.

Lahja – bir-biriga yaqin shevalar yig‘indisi, jamligi.

Lingvogeografik metod – lingvistik hodisalarni geografik joylashishiga ko‘ra tekshirish metodi.

Lingvistik yoki dialektologik orol – muayyan til yoki sheva vakillarining boshqa til yoki shevalarda gaplashuvchilar hududlari orasida o‘ralib qolishi. Agar har bir dialekt faqat o‘ziga mansub chegaralarda qolsa, bunday til landshaftini *lingvistik yoki dialektologik orol* deb hisoblash mumkin bo‘ladi. Bunday “til orollari” paydo bo‘lishiga xalqlarning “buyuk ko‘chish”lari, siyosiy-ijtimoiy kelishmovchiliklar, urushlar kabi hodisalar sabab bo‘ladi.

Leksik izoglossa – izoleksema.

Lingvogramma – fonetikaga oid atama bo‘lib, so‘z tarkibidagi tovushlar artikulatsiyasini tekshirishda qo‘llaniladigan usul. Singarmonistik o‘zbek shevalarida kontrast qo‘sh unlilar tabiatini aniqlash lingvogramma orqali amalga oshiriladi.

Makon faktori – ma’lum lingvistik hodisaning mavjud bo‘lishida, yuzaga kelishida va tarqalishida muhim o‘rin tutuvchi faktor.

Makro va mikro atlas – muayyan lingvistik hodisaning tarqalish areali aks etadiga areal lingvistik atlas turlari. Kichik arealga (masalan, biror shevaga) taalluqli bo‘lsa mikroatlas, katta arealga (masalan, biror lahjaga) taalluqli bo‘lsa makroatlas hisoblanadi.

Massiv – areal lingvistikada ma’lum bir lingvistik hodisalarni o‘zida saqlab kelayotgan region nazarda tutiladi.

Metokartografik metod – kartalar tuzish teoriyasini bilan shug‘ullanadigan soha metokartografiya deyiladi. Areal lingvistikada metokartografik metod bilan areal kartalarni tuzish tamoyil (prinsip) larini shakllantirishda foydalaniladigan metod.

Mikroatlas – areal lingvistikada kichik bir til hodisasining tarqalish regionini aks ettirgan atlas.

Milliy atlas – katta hajmdagi lingvistik hodisalarni o‘zida aks ettirgan atlas. Areal lingvistikada makroatlasga to‘g‘ri keladi.

Milliy til – millat bo‘lib shakllangan jamoaning umumiy tili. Milliy til tarkibida muayyan millatning barcha qatlamlalariga mansub lingvistik birliklar kiritiladi.

Milliy lahjalar – ma’lum millatga mansub milliy mtil tarkibida mavjud lahjalarni anglatadi. O‘zbek milliy tilida uchta lahja mavjud: qarluq, qipchoq va o‘g‘uz. O‘zbek tili uchun ana shu uchta lahja – milliy lahjalar hisoblanadi.

Morfologik izoglossa – izomorfema.

Morfologik tamoyil – O‘zak va qo‘sishimchalarni qanday eshitilishidan qat’iy nazar aynan, asliga muvofiq yozishdir. Masalan, *ketti* emas, *ketdi*; *kelipti* emas *kelibdi*; *Toshkenttan* – Toshkentdan; *ishka* – ishga va boshqalar.

Mos hodisalar – umummilliy til strukturasining zvenolari bo‘lib, har xil dialektlarda o‘zining turli bo‘laklari (a’zolari) bilan ishtirok etgani holda shevachilik farqlarini vujudga keltiradi. Shuning uchun ham mos hodisalar hamma vaqt ikki a’zoli (ikkinchchi a’zosi nolga teng bo‘lgan holda ham) yoki ko‘p a’zoli bo‘ladi. Masalan:

- 1. Ikki a’zoli:** *barävüz* // *boramiz*;
- 2. Uch a’zoli:** *Närvan* // *şati* // *zäññi*;
- 3. Ko‘p a’zoli:** *anä*// *ayi*// *äyä*// *biyi*// *büvi* va boshqalar.

Neolingvistika – yangicha tamoyil (prinsip) lar asosida ish ko‘rilayotgan tilshunoslik. Odatda, eski lingvistik qoidalarni tan olmaslik, ularga qarshi bo‘lgan guruh olimlarning qarashlari umumlashib yuzaga keladigan lingvistik oqim.

Oraliq karta – yoki yig‘ma karta. Bunday kartada bir tipli yoki chog‘ishtiriladigan lingvistik hodisalar yig‘ilgan bo‘ladi.

Palatogramma – fonetikaga oid atama bo‘lib, tilning tanglayga borib urilishini yozib olishni, qayd qilishni nazarda tutadi.

Qardosh tillar – til oilalarining turkumlanishi bo‘yicha bir xil tarmoqqa mansub bo‘lgan tillar. Qardosh tilalrning umumiyligining xususiyatlari bir-biriga yaqin bo‘ladi. Masalan, turkiy tillar o‘zaro qarindosh hisoblanadi.

Qardosh bo‘limgan tillar – til oilalarining turkumlanishi bo‘yicha har xil tarmoqqa mansub bo‘lgan tillar. Qarindosh bo‘limgan tillarning lisoniy xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, arabiylar turkiy tillar bilan qarindosh hisoblanmaydi. Arab tili flektiv, turkiy tilalr esa agglutinativ.

Qorluq dialekt zonasi – qorluq shevalarining tarqalish areallari.

Qigichoq dialekt zonasi – qipchoq shevalarining tarqalish areallari.

Regional atlas – u yoki bu regiondagagi shevalar strukturasining eskiz-sxemasini aniqlash va detallashtirishdan iborat bo‘lgan vazifani bajaruvchi atlas. Xalqaro miqyosda O‘zbekiston hududini o‘z ichiga olgan o‘zbek shevalari atlasi tuzilsa, u regional atlas bo‘ladi.

Rentgenogramma – nutq a’zolarining talaffuz vaqtidagi holatini tekshirish usuli. Maxsus rentgen apparatlari yordamida amalga oshiriladi.

Sinxron tavsiflash – muayyan lisoniy hodisani zamonaviy til xususiyatlari va qonuniyatlarasi asosida tavsiflash.

Sintetik karta – lingvistik xususiyatlarining umumiyligiga ko‘ra tuziladigan karta. Bunda mavjud siyosiy-ijtimoiy hududlar hisobga olinmaydi.

Spektrogramma – nutq oqimining bir qismi bo‘lib, unda bir tovush yoki tovushlarning davomiyligi tekshiriladi. Spektrogramma nutq jarayonida tovushlarning tembr spektorlarining ma’lum vaqt mobaynidagi chasotoalarini spektral tahlil qiladi.

Superstrat – inlgiz tilidan olingan atama bo‘lib, tub aholi tiliga o‘tgan ko‘chib kelgan aholi ya’ni g‘olib tilga mansub so‘zlar.

Substrat – lotincha “*sub*” – tag, ostki va “*strata*” – qatlam ma’nolaridan olingan. va tillar to‘qnashuvidan keyin g‘olib tilda qolgan mag‘lub tilning qoldiqlari.

Struktur-areal – areal lingvistikada muayyan hududning dialektal-lingvistik xususiyatlarini tarkibiy jihatdan o‘rganishni nazarda tutuvchi metod.

Takson – lingvistik tadqiqot obyektlarining rang-barang tarmoqlarga taqsimlanishi.

Taksonomiya – areal lingvistikada hududiy til faktorlarining ierarxik tartiblanishini anglatadi. O‘rganish metodi sifatida Blum taksonomiyasi tipiga mos keladi.

Tayanch dialekt – o‘zining lingvistik xususiyatlari bilan adabiy til normalariga yaqin dialekt tushuniladi. Jumladan, qorluq lajhalariga xos dialektlarni o‘zbek adabiy tili uchun tayanch dialekt sifatida qarash mumkin. Areal lingvistikada muayyan arealdagi shevlar uchun asosiy o‘rinni egallagan dialektni ham shu areal uchun tayanch dialekt deb hisoblash mumkin.

Tarixiy fonetika – til yoki dialektlarning (dioxron) tarixiy davrlardagi tovushlar tizimini o‘rganuvchi soha.

Tarixiy leksika – til yoki dialektlarning (dioxron) leksik xususiyatlarining tarixiy holatini o‘rganuvchi tarmoq.

Ta’sir zonalari – biror til yoki dialektning boshqasiga ta’sir qiluvchi zonalari. Bunday areallarda ikki tillilik, ikki xil shevaning aralashishi, chatishuvi kabi lingvistik hodisalar ro‘y beradi.

Tarixiy-an’anaviy tamoyil – bu tamoyilga asoslangan imlo qoidalariga ko‘ra so‘zlearning yoki so‘z shakllarining qadimdan odat bo‘lib qolgan shakllada, an’anaga mos ravishda yozishni hozirgi imlo uchun me’yor deb belgilaydi.

Til shajaralari – tillarning tarmoqlarining kelib chiqishi nazariyasi. Tillarning tarmoqlarga ajralishini ko’rsatuvchi illustrativ xarakterdagи ko’rgazma. Shajara –daraxt (arabcha) shaklida tillarning kelib chiqishini izohlash.

Til oilalari – tillarning qarindoshligiga qarab guruhlarga ajralishi. Ma’lum lingvistik xususiyatlari o‘xhash bo‘lgan, kelib chiqishi bitta shajaraga aloqador tillar bitta oilaga mansub bo‘ladi.

Tirik tillar – hozirda amalda qo‘llanilayotgan tillar.

Til landshafti – alohida lingvistik xususiyatlarga ega bo‘lgan til yoki dialektning muayyan arealdagi o‘rni. Muayyan til uchun ma’lum bo‘lgan izoglossalar yig‘indisi va ularning shu til territoriyasida joylashish xarakteri tushuniladi. “Landshaft” atamasi, aslida, geografik atama bo‘lib, u ikki qismdan: *land* – yer, maydon va *schaft* – aloqadorlikni, bog‘liqlikni anglatuvchi qo‘shimcha birikishidan hosil bo‘lgan.

Til oroli – Agar har bir dialekt faqat o‘ziga mansub chegaralarda qolsa, bunday til landshaftini *lingvistik yoki dialektologik orol* deb hisoblash mumkin bo‘ladi. Bunday “til orollari” paydo bo‘lishiga xalqlarning “buyuk ko‘chish”lari, siyosiy-ijtimoiy kelishmovchiliklar, urushlar kabi hodisalar sabab bo‘ladi.

Tillarning chatishuvi – yonma-yon holda qo‘llanilib kelinayotgan til yoki dialektlarning har ikkisiga ham o‘xhash bo‘lgan alohida sheva ko‘rinishi yuzaga kelishi mumkin. Yuzaga keladigan dialektni *chatishgan sheva* yoki bu chatishuv tillar o‘rtasida yuz berayotgan bo‘lsa *chatishgan til* deb yuritiladi.

Til ittifoqlari – tillararo aloqalarning umumiylig kasb etuvchi ko’rsatkichlari – areal umumlashmalar yoki til itifoqlari deb yurtiladi.

Transkripsiya – lahja va shevalarda uchraydigan nutq tovushlarining turli ko‘rinishlarini yozuvda ifodalash uchun qo‘llaniladigan ma’lum belgilar sistemasi.

An’anaviy alifbolardan farqli ravishda trnaskripsiya qo‘shimcha belgilar kiritiladi. Uning “fonetik transkripsiya”, “fonematik yoki fonologik transkripsiya” kabi9 turlari mavjud.

Turk o‘g‘uz – turkiy tillar tarkibidagi o‘g‘uz lahjasi. Aslida mazkur atama diaxron qarash asosida qo‘llaniladi. XV asrda turkiy tillardan “o‘g‘uz tili” deb ishlatilgan.

Umlaut hodisasi – *Umlaut//Umlaut* (умляут//умлаут) nemischa “umlaut” – qayta ovozlanish, qayta unlilanish so‘zidan olingan bo‘lib, fonetik hodisa sifatida Yakob Grimm tilshunoslikka olib kirgan. *Umlaut* keyingi bo‘g‘indagi unlining ta’sirida a,o,i unlilarining tembr o‘zgarishini bildiradi. *Umlaut* – regressiv assimlatsiyani yuzaga keltiradi.

Xorazmcha turkiy til – Alisher Navoiy o‘zining «Majolis-un nafois» asarida Xorazm o‘lkasida mavjud tilni, o‘zbek o‘g‘uzlari tilini “*xorazmcha turkiy til*”, ya’ni umumo‘zbek tilining “*Xorazm lahjasi*” deb ataydi.

Xorazm lahjasi – Xorazmcha turkiy til.

Y-lovchi shevalar – j-lovch shevalardan farqli ravishda so‘z boshida “y” undoshi ishlatiladigan shevalar nazarda tutiladi.

Yig‘ma karta – Bu kartada bir tipli yoki chog‘ishtiriladigan hodisalar yig‘ilgan bo‘ladi. Masmuni va material joylashtirish prinsipi jihatidan kartalar tayanch karta, ish bajarishi jihatidan sintetik, analitik yoki tematik bo‘lishi mumkin.

Zamon faktori –ma’lum lingvistik hodisalarning yuzaga kelishida zamon bilan bog‘liq faktorlarning asos bo‘lishi.

Zonal atlas – Yirik zonadagi bir til xususiyatni o‘zida to‘la aks ettirgan atlas – *zonal atlas* hisoblanadi. Regional atlasda u yoki bu regiondagi shevalar strukturasining eskiz-sxemasi aniqlanadi va detallashtiriladi.

O‘lik tillar – bugungi kunda muomala vositasi sifatida foydalanimayotgan, faqat tarixiy manbalardagina saqlanib qolgan tillar. Masalan, sanskrit tili, lotin tili, xorazmiy tili va boshqalar.

O‘tuvchi zonalar – Ikkita mustaqil til yoki shevalarning bir-biriga chegaradosh areallardagi chatishma ko‘rinishlari *o‘tuvchi zonalar* (o‘tish zonalari tili yoki dialekti) deb yuritiladi.

O‘g‘uz dialekt zonası – og‘uz lahjaliga xos dialektlar tarqalgan areallar nazarda tutiladi.

O‘z qatlam – muayyan til yoki dialektdagi asl tub qatlamga xos lisoniy birliklar o‘z qatlam hisoblanadi. O‘zbek tili va shevalari uchun so‘f turkiy qatlamga xos birliklar tushuniladi.

O‘zlashma qatlam – o‘z qatlamga qarama-qarshi tushuncha bo‘lib, o‘zga tillardan kirib kelgan lisoniy birliklar tushuniladi. O‘zbek tili va shevalari uchun arabi, forsir, rus-yevropa va boshqa tillardan kirib kelgan birliklar o‘zlashma qatlam birliklari sanaladi.

Shahar tip shevalari – mamlakatimizdagi aholi zich joylashgan markaziy shaharlariga mansub shevalar tushuniladi. Viloyatlar markazlari, shuningdek qadimi shaharlar arealida mavjud shevalarni ham unga kiritish mumkin. Shahar tip shevalarining qishloq tip shevalaridan farqi, ularda turli regionlardan ko‘chib kelgan aholi ta’sirida arlash til unsurlarining mavjudligidir.

Sheva konsepsiysi – konsepsiya so‘zi lotincha “conceptio” – tushunish, tizim ma’nolaridagi so‘z bo‘lib, sheva konsepsiysi – shevalarni o‘rganishda asosiy nuqtayi nazardan qarab, muammolarni anglash, tushunish, talqin qilishning tizimli yo‘llari tushuniladi.

Quvondiq Olloyorov

Areal lingvistika

fanini o'qitish asoslari

(O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA)

Nashriyot litsenziyasi: AI № 271. 04.07.2013.

Qog'oz bichimi: 60×84 1/16.

Times New Roman garniturasida terildi.

Shartli bosma tabog'i: 4.

Buyurtma № 136 Adadi: 100 nusxa.

«Adabiyot uchqunlari» MChJ nashriyotida bosmaga tayyorlandi va chop etildi.

Toshkent shahri Bunyodkor shoh ko'chasi 28-uy.



Olloyorov Quvondiq Madiyorovich

1969-yil 9-fevralda Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi Oqdarband qishlog'iда ziyoli oilasida tug'ilgan. 1986-yilda tumandagi 27-son o'rta mакtabni a'lo baholarga bitkazib, 1987-1989 yillarda (GSVG) armiya saflarida xizmat qilgan. 1989-90 o'quv yilida Fayzulla Xo'jayev nomidagi Buxoro davlat pedagogika instituti qoshidagi tayyorlov bo'limini tugatib, shu yili Xorazm davlat pedagogika institutining O'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga qabul qilingan.

1995-yilda Qo'qon shahrida Oliy o'quv yurtlarining iqtidorli talabalari o'rtasida o'tkazilgan olimpiadada faxrli 1-o'rinni egallagan. 1995-yilda Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universitetini imtiyozli diplom bilan tamomlab, UrDUNing Umumiy tilshunoslik kafedrasiga ishga qabul qilingan.

2018-yilda prof.Z.Do'simov rahbarligida "Xorazm dostonlari onomastikasi" deb nomlangan dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilgan. O'tgan davr mobaynida chet el, markaziy va mahalliy matbuotda qirqdan ortiq ilmiy nashrlarga mualliflik qilgan. Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" risolasining arab yozuvidagi nusxasi (1996), "Xorazm dostonlari onomastikasi" deb nomlangan monografiya (2017), "Xorazm dostonlaridagi atoqli otlar lug'ati" (2017), "THE USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING PROPER NOUNS (study-methodological manual) (2020) va "Areal lingvistika fanini o'qitish asoslari" (2020) kabi uslubiy qo'llanmalar muallifi.

ISBN-978-9943-5257-9-5

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-5257-9-5. The barcode is composed of vertical black bars of varying widths on a white background.

9 789943 525795